




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI



URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI
“BOSHLANG'ICH VA MAKTABGACHA TA'LIM METODIKASI”
KAFEDRASI

401-BT va STI guruhi talabasi Matchanova Dilobar Bekpo'latovna
5111700- Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish ta'lim yo'nalishi
bo'yicha

bakalavr darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: “1-sinf “O`qish kitobi” darsligidagi “Biz buyuklar avlodi” bo`limi
materiallarini o`rganish yo`llari”

Ilmiy rahbar:



dots. M.Jumaniyozova

Urganch- 2016-yil



**Mavzu: 1-sinf “O`qish kitobi” darsligidagi “Biz buyuklar avlodi” bo`limi
materiallarini o`rganish yo`llari**

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I bob	
1-sinf o`qish darslarining maqsad va vazifalari, unda o`quvchilar bilim, ko`nikma va malakasiga qo`yilgan DTS talablari.	
1.1. 1-sinf o`qish darslarining maqsad va vazifalari va 1-sinf o`quvchilarining bilim, ko`nikma va malakasiga qo`yilgan DTS talablari.....	8
1.2. 1-sinf “O`qish kitobi” darsligi tahlili va undagi “Biz buyuklar avlodi” bo`limi materiallari mundarijasi.....	16
II bob	
1-sinfda “O`qish kitobi” darsligidagi “Biz-buyuklar avlodi” bo`limi materiallarini o`rganish yo`llari.	
2.1. Bo`limdagi ilmiy-ommabop maqola va hikmatli so`zlarni o`rganish.....	21
2.2. Bo`limdagi rivoyat va hikoyalarni o`rganish yo`llari.....	35
2.3. Bo`lim materiallarini o`rganishda ilg`or pedagogik va axborot- kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish.....	45
Xulosa.....	60
Foydalanilgan adabiyotlar.....	62



Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Yurtimizda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning o'z ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun barcha sharoitlar yaratilgan va amalga oshiriladigan vazifalar belgilangan. Bu vazifalarni amalga oshirishning birdan – bir yo'li ta'lim standart tizimini tinmay takomillashtirish orqali yosh avlodni ilm – fan asoslari bilan chuqur qurollantirishdir. Zero, ilm olish yo'lidagi izlanish insonning e'tiqodi va dunyoqarashini shakllantiradi, ma'naviy – axloqiy kamolot sari yetaklaydi.

Boshlag'ich ta'lim "Ta'lim to'g'risida" gi qonunni hayotga tadbiq etishda muhim bosqich hisoblanadi va unda ona tili o'qitish asosiy o'rin egallaydi.

Ma'lumki, boshlang'ich sinflarda o'qish darslarida o'quvchilar tabiat, jamiyat, unda yashovchi kishilar hayoti haqida, ularning o'tmishi, hozirgi yashash hayoti hamda mashhur kishilar to'g'risida bilib oladilar. Ularga tabiat, ob-havo, boyliklar, hayvonot dunyosi va boshqalar haqida bilimlar beriladi. Bilim olish jarayonida munosabat uyg'otiladi. Bilim berish bilan o'quvchi shaxsi ham tarbiyalanib boriladi. Sinfda o'qish darslariga ta'lim-tarbiya vazifalari kompleks ravishda hal qilinadi. Shuningdek, o'quvchlarning ijobiy sifatlari shakllanadi, ular aqliy va estetik jihatdan kamol topadilar. Mustaqil ravishda bilim olish asoslarini egallaydilar.

Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy hayotidagi o'zgarishlar yangi davr talablari asosida ijodiy ishlaydigan tashabbuskor, tadbirkor, mohir va har tomonlama qobiliyat egasi bo'lgan kadrlar tayyorlashni taqazo qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov ta'kidlaganidek: "Bugungi kunda oldimizga qo'ygan buyuk maqsadlarimiz, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirayotgan islohotlarimiz, rejalarimizning samarasi taqdiri – bularning barchasi, avvalombor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli



mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bogliqligini barchamiz anglab yetmoqdamiz”.¹

Bilimli har tomonlama rivojlangan, jamiyatni taraqqiy ettirishga qodir kadrlarni yetishtirish ishiga maktabdayoq tamal toshi qo'yiladi. Ta'limga berilgan e'tibor – jamiyatga berilgan e'tibor. Shuning uchun ham ta'lim-tarbiya jarayoni taraqqiy ettirish va yuksaltirish ishlariga mustaqillik yillarida juda katta e'tibor qaratilmoqda. Hozirda “O'zbekistonda har yili ta'lim olish uchun sarflanadigan xarajatlar yalpi ichki mahsulotning 10-12 foizini tashkil etadi”.²

“Ta'lim to'g'risida”gi Qonun, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi ta'lim sohasida olib boriladigan ishlarning mazmuni va istiqbolini belgilab berdi.³

Bular asosida Davlat ta'lim standarti, dasturlar va darsliklarning yangi avlodlari yaratildi. Ta'limda rivojlangan davlatlar tajribalaridan foydalanilmoqda. Ta'limni pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishga doir tajribalar to'planmoqda va tobora kuchayib borayotgan raqobat asrida faqat chuqur islohotlar va modernizatsiya yo'lidan tinimsiz va qat'iyat bilan rivojlanib borish natijasida o'z oldimizga qo'ygan istiqbolli maqsadlarga – taraqqiy topgan, farovon yashayotgan demokratik davlatlar qatoriga kirish, xalqimiz uchun munosib hayot darajasini ta'minlashga erisha olamiz”.⁴


Jamiyat va ilm-fan tinimsiz taraqqiy etaveradi. Yangiliklar yaratilaveradi. Yangiliklarni ta'lim jarayoniga olib kirish va joriy etish bugungi kun

¹ Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. -Toshkent, “O'zbekiston”, 2010, 74-75-betlar.

² O'zbekiston prezidenti I.A.Karimovning BMT bosh assambleyasining mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan oily darajadagi yalpi majlisdagi nutqi.- Toshkent. “O'zbekiston”, 2010, 11-bet.

³ O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni // Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.- Toshkent: “Sharq” nashriyot- matbaa konsernining Bosh tahririyati, 1998.
O'zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” // Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.- Toshkent: “Sharq” nashriyot- matbaa konsernining Bosh tahririyati, 1998.

⁴ Karimov I.A.Mamlakatni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish – taraqqiyotimizning muhim omilidir.- Toshkent, 2010, 4-bet.



o'qituvchisining vazifasidir. Bilimli, yuqori malakaga ega bo'lgan o'qituvchilarga jamiyatning ta'lim oldiga qo'ygan vazifasini amalga oshirishga qodir bo'ladilar. O'qituvchining izlanishi, bugungi kun talablari asosida o'z-o'zini tarbiyalashi, o'z ustida tinimsiz ishlashi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirishi va ta'lim jarayonida qo'llay olishi ta'lim samaradorligini oshiradi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining ta'sirchanligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

Insonning shakllanishi va ma'naviy yuksalishida xalqimiz tarixida ulkan o'rin tutgan buyuk ajdodlarimiz, mutafakkir allomalarimiz hayotiy yo'li va ularning meroslari ulkan o'rin tutadi. Zero, tarixsiz kelajak bo'lmaganidek, buyuk siymolar tomonidan qoldirilgan ma'naviy boyliklarsiz yosh avlodni barkamol inson ruhida tarbiyalash mumkin emas. Shuning uchun ham yosh avlodni birinchi sinfdanoq buyuk ajdodlarimiz bilan faxrlanish ruhida tarbiyalash juda muhim vazifa hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan 1-sinf "O'qish kitobi" darsligida berilgan "Biz- buyuklar avlodi" bo'limi materiallarini o'rganishni metodik jihatdan tadqiq qilish muhim vazifalardan hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan mazkur bitiruv malakaviy ish mavzusi dolzarb sanaladi.


Tadqiqot maqsadi. 1-sinfda "O'qish kitobi" darsligidagi "Biz buyuklar avlodi" bo'limi materiallarini o'rganish metodikasini tadqiq qilish.

Tadqiqot obyekti. 1-sinfda "O'qish kitobi" darsligidagi "Biz buyuklar avlodi" bo'limi materiallarini o'rganish jarayoni.

Tadqiqot predmeti: 1-sinfda "O'qish kitobi" darsligidagi "Biz buyuklar avlodi" bo'limi materiallarini o'rganish metodikasi.

Tadqiqot vazifalari:

- 1-sinf o'qish darslarining maqsad va vazifalarini, uning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib berish;
- 1-sinf o'quvchilarining bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan dastur talablarini ko'rsatish;



- 1-sinf “O‘qish kitobi” darsligining tuzilishi va undagi “Biz buyuklar avlodi” bo‘limi materiallari mundarijasini tahlil qilish;
- bo‘limdagi hikoyalarni o‘rganish yo‘llarini belgilash;
- bo‘limdagi rivoyat va ilmiy ommabop maqolalarni o‘rganish darslarini tashkil qilish yo‘llarini ishlab chiqish;
- bo‘lim materiallarini o‘rganishda ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini qo‘llashni ko‘rsatib berish.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot ishida ona tili o‘qitish metodikasidagi analiz va sintez, taqqoslash va umumlashtirish, pedagogik kuzatish va mavzuga doir mavjud adabiyotlarni tahlil qilish metodlariga tayanib ish ko‘rildi

Tadqiqotning metodologik asosi. O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”, “Boshlang‘ich ta’lim konsepsiyasi”, “Boshlang‘ich ta’lim DTS va o‘quv dasturi”, shuningdek, ta’lim-tarbiya sohasida qabul qilingan qaror va farmonlar, I.A.Karimovning asarlari hamda ta’lim-tarbiyaga oid fikrlari, mavzuga doir ilmiy-metodik adabiyotlar.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi.


- 1-sinf o‘qish darslarining o‘ziga xos xususiyatlari ko‘rsatib berildi;
- 1-sinf “O‘qish kitobi” darsligi tahlil qilindi;
- 1-sinfda buyuk ajdodlarimiz haqida asarlarni o‘qish darslarini tashkil qilish va o‘tkazish yo‘llari ishlab chiqildi;
- 1- sinfda “Biz- buyuklar avlodi” bo‘limi materiallarini o‘rganishning samarali yo‘llari ko‘rsatib berildi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati.

1-sinf o‘qish darslarining maqsad va vazifalari, uni tashkil etish va o‘qitish texnologiyasi o‘rganib chiqildi. 1-sinfda ”Biz buyuklar avlodi” bo‘limi materiallarini o‘qish darslarining ishlanmalari ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalaridan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, va pedagogika oliy o‘quv yurtlarining boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari foydalanishi mumkin.



Tadqiqotning tuzilishi: Ish kirish, II bob (5 qismdan tashkil topgan), xulosalari va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Uning hajmi 60 sahifani tashkil qiladi.



I bob


1-sinf o'qish darslarining maqsad va vazifalari, unda o'quvchilar bilim, ko'nikma va bilimiga qo'yilgan DTS talablari.

1.1. 1-sinf o'qish darslarining maqsad va vazifalari va 1-sinf o'quvchilarining bilim, ko'nikma va malakasiga qo'yilgan DTS talablari

Ta'lim va tarbiyaning yangicha mazmuni: o'quvchilarning yanada ongini oshirish; o'quv-tarbiya jarayonini yanada takomillashtirish; o'qitish metodlarini hozirgi kun talablari darajasiga ko'tarish; bolalarning bilim qobiliyatlarini yuqori darajada rivojlantirish; berilgan bilim va ko'nikmalarining ongli, puxta o'zlashtirilishiga erishish; o'quvchilarning mustaqil aqliy mehnat ko'nikmalarini o'stira borish kabi vazifalarni ko'zda tutadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berishdagi muhim vazifalarning asosiy qismi o'qish mashg'ulotlari orqali amalga oshiriladi. O'qish va nutq o'stirish darslari jarayonida DTS belgilagan mavzular asosida o'quvchilarga muayyan bilim beriladi. O'qish ko'nikmalarini takomillashtira borish bilan bir qatorda o'quvchilarni barkamol yetuk inson ruhida tarbiyalash vazifasi ham diqqat markazda bo'ladi. Boshlang'ich ta'limda o'qish va nutq o'stirish dasturining maqsad va vazifalariga ko'ra o'qish mashg'ulotlari orqali o'quvchilar to'g'ri, ongli, ravon, tez va ifodali o'qishga o'rgatiladi. Bolalar bu jarayonda kitob bilan ishlash ko'nikmasiga ega bo'la boradilar va ularga kitobga muhabbat tuyg'usi uyg'otiladi.

O'quvchilar ongida tevarak-atrofdagi narsa va hodisalar haqidagi tasavvur va tushunchalarini to'g'ri shakllantirish uchun ularning yoshi va bilim saviyasi hisobga olinishi talab etiladi.

O'qish inson hayotida muhim ahamiyatga ega. O'qishni bilmagan odamning ko'zi ojiz kishidan farqi yo'q. O'qish faoliyati boshlang'ich sinflarda barcha fanlarda amalga oshiriladi, lekin o'qishga o'rgatish o'qish darslarining asosiy vazifasidir. Kichik yoshdagi o'quvchini o'qishga o'rgatishda ularning umumiy rivojlanishini, psixologiyasini hisobga olish zarur. O'quv materialining hajmini oshirib yuborish, tinmay bir maromdagi o'qishni tashkil etish bolani o'qish mashg'ulotidan bezdiradi.



O'quvchilarni qiziqarli topshiriqlar, didaktik o'yinlar asosida o'qitish o'qishga o'yin tusini beradi. Bola o'ynab charchamagandek, o'qib charchaganini sezmaydi.

1-sinfda o'qish darslari bir qancha vazifalarni bajaradi. Xususan, u bola o'qish texnikasini egallashi uchun, avvalo, uning savodxonlik darajasini oshirish, og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish, to'g'ri talaffuz etishni o'rgatish lozim bo'ladi.

Dastlab tanish, keyin notanish matn ifodali o'qitilib, o'quvchidagi ko'nikma, malaka aniqlanadi. Bunda miqdoriy ko'rsatkich – o'qish tezligi, ravon o'qiy olish, bir daqiqada nechta so'z o'qiy olishi belgilanadi.



Bola matn mazmunini to'liq uqib olishi, shuningdek, o'zgalar nutqini eshitib, tushunib olishi maqsad qilinadi.

O'quvchining 10 daqiqada 4-5 sahifali matnni o'qib, qayta so'zlab bera olishi, o'zgalar fikrini anglab, uni og'zaki bayon qila olish darajasi aniqlanadi.

Mazkur standart mezonlarining o'zaro uzviy bog'liqligi (integratsiyasi), o'qish, ona tili ta'limida belgilangan vazifalarning amalga oshishida asosiy omil hisoblanadi.

Boshlang'ich ta'limda adabiyot ta'limi tarkibidagi o'qish mazmunining negizi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- *mavzu doirasi*: Vatan, vatan o'tmishi, hozirgi taraqqiyoti, kelajagi buyuk allomalar, tarixiy shaxslar, xalq qahramonlari, tengdoshlari hayoti, ilm- fan, ma'rifat, madaniyat, mavsumiy o'zgarishlar;
- *janriy xususiyatlari*: hikoya, ertak, maqol, topishmoq, doston, tez aytish, she'r, latifa, lof;
- kitob bilan ishlash;
- so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish; bo'g'inlab o'qishdan ongli, sidirg'asiga (tekis), tez, to'g'ri, ravon va ifodali o'qishga erishish;
- o'zbek va xorijiy bolalar yozuvchilari asarlarini o'qish;
- yozuvchilarning ismi-sharifi, asarlarining nomlari haqida to'laroq tushuncha hosil qilish;
- badiiy asarlarni sharhli, ifodali o'qish;




- asar mazmuni va voqealari o‘rtasidagi bog‘lanishni, qahramonlarning fe’l atvorini aniqlash, qiyosiy tavsiflash;
- o‘qigan asarlari yuzasidan o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki va yozma tarzda izchil ifodalash;
- so‘z boyligini oshira borish va nutqida faol qo‘llash;
- o‘qigan asarlari yuzasidan mustaqil reja tuzish;
- badiiy asarlarni estetik tahlil qilish;
- o‘qigan asarlari yuzasidan savol-topshiriqlar tuzish;
- nasriy asar mazmunini to‘liq, qisqartirib, shaxsini o‘zgartirib hikoyalash;
- badiiy asarlarni o‘zaro qiyoslab, tegishli xulosalar chiqarish.

Yuqoridagilarga asoslanib, uzviylashtirilgan o‘quv dasturi asosida “O‘qish” fanidan” taqvim –mavzu reja quyidagicha bo‘ladi:

1-sinf “O‘qish kitobi”(T.G‘afforova va b.)

T/R	Mavzular	Soati	O‘tish vaqi	Uyga vazifa
III-IV chorak				
O‘zbekiston – Vatanim mening				
1	Vatan – bu...	1		
2	Buyuklar vatani.	1		
3	Yurt qalqonlari.	1		
4	Ota rozi – Vatan rozi (Sinfda o‘qish – SO‘); Sinfdan tashqari o‘qish (STO‘ – 20 daqiqa).	1		
5	Suv-shifo. Erkin Malik	1		
6	Oy allasi	1		
7	Shamol va quyosh	1		
8	Vatan STO‘-20 daqiqa	1		
9	Yagonadir vataning sening	1		
10	1- nazorat ishi	1		
11	Bo‘lim yuzasidan takrorlash	1		
Biz- buyuklar avlodi				
12	Amir Temur. Amir Temur o‘g‘itlari	1		
13	G‘azal mulkning sultoni. Alisher	1		

	Navoiyning hikmatli soʻzlari			
14	Alisherning yoshligi.	1		
15	Non isi (SOʻ). STOʻ-20 daqiqa	1		
16	Abu Ali ibn Sino	1		
17	Kitobga mehr.	1		
18	2- nazorat ishi	1		
19	Buyuk munajjim (SOʻ). STOʻ-20 daqiqa	1		
20	Shoh va shoir	1		
21	Ona sabogʻi	1		
23	Boʻlim yuzasidan takrorlash (SOʻ). STOʻ-20 daqiqa	1		
Koʻklam – yashaydi olam				
24	Bahor kelgach	1		
25	Lola	1		
27	3- nazorat ishi	1		
28	Ona allasi	1		
29	Mehribon onajonim (SOʻ). STOʻ-20 daqiqa	1		
30	Bekinmachoq.	1		
31	Navroʻz sheʻri. Rauf Tolib	1		
32	Navroʻz bayrami (SOʻ). STOʻ-20 daqiqa	1		
33	4-nazorat ishi. Boʻlim yuzasidan takrorlash.	1		
Ilm – aql chirogʻi				
1	Maktab – oftob qoʻshigʻi.	1		
2	Kitobni asrang (SOʻ). STOʻ-20 daqiqa	1		
IV chorak				
3	Kitobim, jon kitobim.	1		
4	Oʻquv va bilim haqida	1		
5	Kompyuter	1		
6	Yaxshi niyat (SOʻ). STOʻ-20 daqiqa	1		
7	5- nazorat ishi	1		
8	Aqlli qargʻa.	1		
9	Boʻlim yuzasidan takrorlash.	1		
Xalq oʻgiti – baxt kaliti				
10	Sher va sichqon	1		
11	Maymun va duradgor (SOʻ). STOʻ-20 daqiqa	1		
12	Rostgoʻy bola	1		
13	Maqollar			
14	Topishmoqlar.	1		
15	Laylak keldi – yoz boʻldi.	1		
16	Latifalar	1		



17	Bo‘lim yuzasidan takrorlash. (SO‘). STO‘-20 daqiqa	1		
18	6- nazorat ishi	1		
Odob – insonga husn				
19	Oftob va odob.	1		
20	Odob	1		
21	Kapalak (SO‘). STO‘-20 daqiqa	1		
22	Maslahat	1		
23	Taqsim	1		
24	Xotira va qadr. STO‘-20 daqiqa	1		
25	Chiroyli salom.	1		
26	Bo‘lim yuzasidan takrorlash.	1		
27	7- nazorat ishi	1		
Mehnatning tagi rohat				
28	Aqlli bog‘bon (SO‘). STO‘-20 daqiqa	1		
29	Soqi bilan onasi	1		
30	Yer nima der ?	1		
31	Tugma	1		
32	Maqtanchoq g‘oz	1		
33	8- nazorat ishi. Mustahkamlash	1		
34	Ona yer	1		
35	Yurak (Rivoyat)	1		
36	Bo‘lim yuzasidan takrorlash	1		

1-sinf o‘quvchining DTS bo‘yicha o‘zlashtirishi zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar quyidagilardan iborat bo‘ladi.



Bilim:

- hikoya, she‘r, ertak, topishmoq, maqol, tez aytish janrlari;
- badiiy asar mazmunini bilish;
- asardagi eng qiziqarli lavhalarni bilish

Ko‘nikma:

- matndagi so‘zlarning ma’nolarini izohlay olish;
- matn mazmunini ko‘rgazmalar vositasida to‘liq qayta hikoyalay bilish;
- tayyor reja asosida asarni to‘liq qayta hikoyalay olish;
- asar qahramonlarining (salbiy va ijobiy) xatti-harakatlarini aniqlash va baholay olish.

Malaka:



- soʻz tarkibida tovushlarni toʻgʻri talaffuz qilish;
- soʻzlarni boʻgʻinlab, soʻng sidirgʻa (tekis) oʻqish;
- hikoya, sheʻr, ertak, topishmoq, maqol, rivoyat, tez aytish janrlaridagi asarlarni ifodali oʻqish;
- bir daqiqada 25-30 soʻzni oʻqish;
- oʻqigan asari yuzasidan oʻz fikr-mulohazalarini bildirish;
- oʻqilgan asar asosida rasm chizish;
- oʻquv yili yakunida 5 ta sheʻrni yoddan aytib berish.⁵

Bu bilim, koʻnikma va malakalarni egallash koʻp jihatdan 1-sinf oʻqish darslarini toʻgʻri tashkil qilishga ham bogʻliqdir. Oʻquvchilar oʻqish darslarida oʻqilgan asar mazmunini toʻgʻri idrok etishlari, bilimlarni mukammal egallashlari, hayot haqida maʼlum tasavvurga ega boʻlishlari zarur. Buning uchun tayyorgarlik ishlari oʻtkaziladi.

Tayyorgarlik ishlarining vazifalari:

1. Oʻquvchilarning asarda aks ettirilgan voqea-hodisalar haqidagi tasavvurlarini boyitish, matnni ongli idrok qilishga taʼsir etadigan yangi maʼlumotlar berish, badiiy asarda tasvirlangan voqea-hodisalarni oʻquvchilar oʻz hayotlarida kuzatganlari bilan bogʻlay olishlariga sharoit yaratish. Buning uchun qoʻllanmaning metodik maslahatlar qismidan foydalanish yaxshi samara beradi.

2. Yozuvchining hayoti bilan elementlar tarzida tanishtirish, yozuvchiga, uning hayotiga, ijodiy qiziqish uygʻotish.

3. Oʻquvchilarni asarni emotsional idrok etishga tayyorlash.

4. Asar mazmunini tushunishga murakkablik qiladigan soʻzlarning lugʻaviy maʼnolarini tushuntirishdan iborat.

Tayyorgarlik ishlarining shakllari xilma-xil boʻlib, oʻqituvchi asar mazmuni va shakliga qarab ish turini tanlaydi. Tayyorgarlik davri uchun 2-5 daqiqa ajratiladi.

⁵ Uzviylashtirilgan Davlat taʼlim standarti va oʻquv dasturi.- Toshkent, 2010, 24-bet.



Ekskursiya. Bu ish turidan tabiat tasviriga bag‘ishlangan yoki ishlab chiqarish, qurilish, shahar, qishloq hayotiga doir mavzular o‘rganilganda foydalanish mumkin. Chunonchi, “Ulkan hovuz”, “Bahor”, “Navro‘z bayrami”, “Kompyuter”, “Qish”, Amir Temur, Alisher Navoiyga bag‘ishlangan materiallarni o‘rganishdan oldin ekskursiya qilish maqsadga muvofiq. Ekskursiya uchun reja beriladi va matn o‘rganilishidan kamida bir hafta oldin o‘quvchilarga e‘lon qilinadi

Film namoyish qilish. Ba’zi matnlarni o‘rganishdan oldin o‘quv materialiga doir film namoyish qilinsa, o‘quvchilarning asarni idrok qilishlari faollashadi. Hozir o‘quv filmlari yetarli emas. Ammo videofilmlardan foydalanish mumkin.

O‘qituvchi hikoyasi. Asar muallifi haqida ma’lumot berishda u eng samarali metod hisoblanadi. Biror shoirnin she’rini ifodali o‘qish, hikoya, ertakni ta’sirli bayon etishda uning bolalar uchun yozgan asarlari namoyish etilib, ular haqida qisqacha ma’lumot berilsa, o‘quvchilarning asarni o‘qishga qiziqishlari ortadi. Tayyorgarlik davridan so‘ng 1-bosqich amalga oshiriladi. Bu bosqichning asosiy vazifasi matnni yaxlit idrok etish jarayonida asarning aniq mazmuni bilan, uning syujet chizig‘i bilan tanishtirish, asarning emotsional ta’sirini aniqlashdir.

Matn ifodali o‘qib beriladi. O‘qituvchi o‘quvchilarga umumiy taassurotlarini aytishni talab qiladigan savollar beradi.

Hikoyaning qaysi o‘rni sizga yoqdi?


Qahramonlardan qaysi biri sizga ayniqsa yoqdi?

Siz asar qahramoni o‘rnida bo‘lishni istarmidingiz?

Hikoya o‘qilganda siz qaysi o‘rinda juda xursand bo‘ldingiz? kabi savollar beriladi.

O‘quvchilarning borliq, tabiat va jamiyat haqidagi tasavvurlari, bilimlarini ma’lum bir tizimga solish va boyitish, dunyoqarashini shakllantirish kabi vazifalar bajariladi.

Bo‘g‘in tuzilishi murakkab bo‘lmagan so‘zlarni bo‘g‘inlab to‘g‘ri o‘qish. Bolalar hayoti bilan bog‘liq bir bo‘g‘inli, ikki bo‘g‘inli so‘zlarni bir tekis o‘qishlariga erishish. Buning uchun o‘qituvchi o‘qiladigan asar matnini o‘rganish jarayonida o‘qilishi qiyin o‘rinlarni belgilashi va o‘qishni differensial usulda



tashkil etishi, ya'ni o'qilishi qiyinroq o'rinlarni yaxshiroq o'qiydigan o'quvchilarga, oson o'qiladigan o'rinlarni o'qish malakasi bo'sh o'quvchilarga o'qitishni mo'ljallashi lozim.


Bo'g'in tuzilishi murakkab so'zlarni kartonga solib yoki xattaxtaga bo'g'inlarga bo'lib yozish, jo'r o'qitish usulidan foydalanish, so'z ma'nosini izohlash yo'li bilan to'g'ri o'qishni amalga oshirish kerak.

1-sinfda o'qishning ovoz chiqarib, ba'zan shivirlab o'qish turidan foydalanish ta'lab etiladi. Chunki o'qituvchi o'quvchilarning to'g'ri o'qishini hisobga olish va to'g'irlash imkoniyatiga ega bo'lishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, 1-sinf o'qish darslarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. To'g'ri, tez, ongli va ifodali o'qishga o'rganish. O'qish malakalarini takomillashtirish.
2. O'qish darslarida o'quvchilarni axloqiy tarbiyalash va bilimni rivojlantirish vazifalarini aniq belgilash, dunyoqarashni shakllantirish. Shuning bilan birga ekologik, estetik, mehnat, iqtisodiy va huquqiy tarbiya berish.
3. O'quvchilarda ijodiy tasavvur, nutq va tafakkurni o'stirish.
4. Qadim – qadimdan ardoqlanib kelingan kitobga mehr – muhabbatni tarbiyalash, uni e'zozlashga o'rgatish.
5. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga, fikrlarini erkin bayon etishga o'rgatish.

Ko'rinadiki, 1-sinf o'qish darslari o'ziga xos xususiyatlari bilan boshqa sinflardagi o'qish darslaridan hamda boshqa predmet darslaridan maqsadi, vazifalari bilan ajralib turar ekan.



1.2. 1-sinf “O‘qish kitobi” darsligi tahlili va undagi “Biz-buyuk avlodi” bo‘limi materiallari mundarijasi.

Boshlang‘ich sinflardagi ona tili ta‘limi bolalarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o‘zgalar fikrini anglash, o‘z fikrlarini og‘zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish, jamiyat a‘zolari bilan erkin muloqotda bo‘la olish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu o‘rinda ona tili ta‘limiga o‘quv fani emas, balki, butun ta‘lim tizimini uyushtiruvchi ta‘lim jarayoni sifatida qaraladi.

Ona tili ta‘limi standarti ko‘rsatkichlari bolani fikrlay olish, ifodalangan fikrni anglash va o‘z fikrini savodli, mantiqiy izchillikda bayon eta olishga o‘rgatish nuqtai nazaridan belgilanadi.


Boshlang‘ich ta‘lim bosqichida o‘quvchilarning ona tili ta‘limi bo‘yicha tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablar quyidagi uch parametrli standart mezon orqali aks ettiriladi: o‘qish texnikasi, o‘zgalar fikrini va matn mazmunini anglash hamda fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi.

Fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi murakkab jarayon bo‘lib, ona tili ta‘limining maqsadi shu parametrda mujassamlashadi va o‘quvchi tomonidan yaratilgan matnda aks etadi. Bu parametr bo‘yicha ta‘lim sifatining natijasini baholashda o‘qituvchi tomonidan quyidagi ko‘nikmalarning darajasi aniqlanadi:

- fikrni mantiqiy izchillikda ifodalay olish;
- mavzuning murakkablik darajasi (sodda, murakkab, aniq va h.k.);
- tavsifning mavzuga muvofiq va mukammal bo‘lishi;
- tavsifda tilning ifoda vositalaridan foydalana bilishi;
- imloviy (yozma) savodxon bo‘lishi.

1-sinf o‘qish darslari atrof-muhit, insoniy munosabatlar, Vatanning o‘tmishi va hozirgi kundagi hayoti, unda insonlarning o‘rni haqidagi o‘quvchilar bilimlarni kengaytiradi, dunyoqarashlarining shakllanishiga, ma‘naviy-axloqiy tarbiyasiga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Natijada o‘quvchilarda ijobiy – axloqiy sifatlar shakllana boshlaydi, vatanparvarlik, vatanga muhabbat, insonparvarlik hislari rivojlanadi.

1-sinf o‘qish darslari 1-sinf ”O‘qish kitobi” darslagi asosida tashkil qilinadi.



Darslikning o'n birinchi nashri mualliflari T.G'afforova, E.Shodmonova, G.Eshturdiyevlar bo'lib, u 2015-yilda Toshkentda "Sharq" nashriyot–matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyatida chop qilingan.


1- sinf "O'qish kitobi" dagi materiallar tevarak-atrofdagi hayot, kishilarning o'zaro munosabatlari respublikamiz kishilari ma'naviy qiyofalari, ularning ona-Vatan hamda borliq haqidagi tushuncha-tasavvurlarini kengaytirish orqali bolalarning bilim va ko'nikmalarini har tomonlama taraqqiy ettirish, saviyalarini kengaytirishni ko'zda tutadi. Shuning uchun ham darslikdagi materiallar mazmuni bolalarga g'oyaviy, siyosiy, axloqiy va estetik tarbiya berish; to'g'ri, tez, ongli va ifodali o'qish malakalarini oshirishni ko'zda tutadi. Darslikda berilgan mavzular ma'lum bir mavzu doirasida birlashtirilgan.

1-sinf "O'qish kitobi" kitobi darsligi o'z ishiga 7 bo'limni oladi. Bular: "O'zbekiston – mening Vatanim", "Biz – buyuklar avlodi", "Ko'klam – yashaydi olam", "Ilm – aql chirog'i", "Xalq o'giti – baxt kaliti", "Odob – insonga husn", "Mehnatning tagi- rohat". Shuning bilan birga kitobda mustaqil o'qish uchun ham materiallar berilgan. Darslikning har bir bo'limi ma'lum maqsad asosida tuzilgan.⁶

Birinchi bo'lim "O'zbekiston – mening vatanim" deb nomlangan bo'lib, u o'quvchilarni vatan tushunchasi bilan tanishtirib, uning qiyosi yo'qligiga ishonitiradi, uni asrab-avaylashga, u bilan faxrlanishga o'rgatadi. Shuningdek, vatanning o'tmishi va hozirgi kuni haqidagi materiallar ham o'quvchilarda vatanparvarlik, vatanga muhabbat hislarini rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Ikkinchi bo'lim esa "Biz – buyuklar avlodi" deb nomlangan. Bu bo'limda o'quvchilar o'zbek xalqining buyuk xalq ekanligini, uning donishmand farzandlarini butun dunyo bilishini o'rganib, ularda vatanparvarlik, insonparvarlik sifatlari tarbiyalanadi. Bu bo'limda ular millatimiz faxri bo'lgan Amir Temur, Alisher Navoiy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Bobur kabi allomalar haqidagi ma'lumotlar bilan tanishadilar. Ularning hayoti haqidagi rivoyatlarni o'rganadilar.

⁶ O'qish kitobi. 1-sinf uchun darslik. – Toshkent, "Sharq" nashriyot-matbba aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2015.



Uchinchi bo‘lim-”Ko‘klam-yashnaydi olam” bo‘limida o‘quvchilar

bahor fasli, unda o‘tadigan bayramlar, bahorda bajariladigan ishlar haqidagi ma’lumotlar bilan tanishadilar va bu bo‘lim ”Ko‘klam – yashardi olam” deb atalgan.

To‘rtinchi bo‘lim ”Ilm – aql chirog‘i” deb nomlangan bo‘lib, u ilmga, o‘qishga, kitobga mehrni tarbiyalash maqsadini ko‘zlaydi.

O‘quvchilar bu bo‘limni o‘rganish orqali ilmning inson hayotidagi ahamiyatini bilib oladilar. Bilimli bo‘lish uchun ko‘proq o‘qish, o‘rganish lozimligini anglaydilar.

Beshinchi bo‘lim “Xalq o‘giti – baxt kaliti” deb nomlanib, xalq ogzaki ijodini o‘rganishga bag‘ishlangan, bunda 1-sinf o‘quvchilarining yoshi, o‘zlashtirish xususiyatlariga mos materiallar tanlangan. Asosiy maqsad o‘quvchilarda umuminsoniy sifatlarni, milliy qadriyatlarni tarbiyalashga qaratilgan.

Oltinchi bo‘lim- “Odob – insonga husn”. Bu bo‘limda insonning eng go‘zal fazilatlaridan biri – odoblilik haqida gap boradi. Bu bo‘limni o‘rganish orqali o‘quvchilar kundalik hayotidagi insoniy munosabatlarni, undagi axloq normalarini, umuminsoniy sifatlarni bilib, o‘zlashtirib oladilar.

Yettinchi bo‘lim ”Mehnatning tagi–rohat” deb ataladi. Bunda o‘quvchilar mehnat insonga baxt keltirishini, insonlar hayotida baxtli yashash uchun biror kasbni egallashlari zarurligi haqidagi mavzularni o‘rganadilar. Ularda mehnatga hurmat, mehnatsevarlik, kasb egallashga qiziqish hislari tarbiyalanadi.

Har bir bo‘lim so‘ngida mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar, turli boshqotirma va rebuslar berilganki, bular o‘quvchilarda erkin fikrlashni, izlanish qobiliyatini rivojlantirish bilan birga, ularda o‘qish motivlarini rivojlanishiga xizmat qiladi.

O‘qituvchi badiiy matn ustida ishlaganda mavjud savol va topshiriqlardan foydalanadi. U matnni avval ifodali qilib o‘qib beradi. Keyin matn mazmuni ustida suhbat uyushtiradi. Bunda o‘qituvchi savollar va tasviriy vositalardan foydalanadi. O‘quvchilarning o‘zlariga ovoz chiqarmay o‘qish, mazmunini tushunish



topshiriladi. Keyin navbatma – navbat o‘qitiladi. Lug‘at ustida ishlab, yangi so‘zlar ma’nosi tushuntiriladi, o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirishga e’tibor qaratiladi. Oxirida savol – javob, test, boshqotirma, rebus yechib o‘quvchilar bilimi umumlashtiriladi, reytingi e’lon qilinadi.


Har bir mavzu oxirida topishmoq, maqol, hikmatli so‘zlar, tez aytishlar berilgan. Bundan o‘qituvchi har bir darsning mazmuniga qarab foydalanishi mumkin.

Har bir bo‘lim tugashi bilan takrorlash – umumlashtirish darslari o‘tiladi. Shunga erishish lozimki, bu darslar o‘quvchilar uchun bayram shaklida, qiziqarli bo‘lsin. Chunki bu darsda o‘quvchilarning bo‘limni o‘rganish davomida egallagan bilimlari umumlashtiriladi va sinaladi. Shuning uchun ham bu darslar ertak dars, sahna darsi va boshqa shu kabi qiziqarli noan’anaviy dars tarzida o‘tilishi lozim. Bunday darslarni tashkil etish uchun darslikda turli boshqotirma, rebus va testlar berilgan. O‘qituvchi darsga ijodiy yondashib uni yanada boyitishi mumkin.

Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarga milliy qadriyatlar, xususan, Sharq allomalari qoldirgan boy meros asosida ta’lim-tarbiya berish muhim ahamiyat kasb etadi. Ulug‘ allomalarimiz asarlarida bolalarga go‘daklik chog‘idanoq kattalarga hurmat va keksalarni e’zozlash, ota-onaga alohida ehtirom ko‘rsatish, o‘zidan kichiklar izzatini o‘rniga qo‘yish kabi ajoyib qadriyatlarimizga tayanib ish ko‘rishga chaqiriladi. Shu ma’noda ham «Biz sog‘lom avlodni tarbiyalab, voyaga yetkazishimiz kerak, sog‘lom kishi deganda faqat jismoniy sog‘lomlikni emas, balki sharqona axloq-odob va umumbashariy g‘oyalar ruhida kamol topgan insonni tushunamiz...», - deb ta’kidlaydi Prezidentimiz Islom Karimov.

1-sinf o‘quvchilariga ta’lim-tarbiya berishda o‘tmishimizda yashab ijod qilgan buyuk allomalar haqidagi asarlarni o‘rgatish juda katta o‘rin tutadi. Ularning hayoti va faoliyati haqida ma’lumotga ega bo‘lgan bolalarda o‘z ajdodlari bilan faxrlanish tuyg‘ulari shakllantiriladi.

1-sinf “O‘qish kitobi” darsligining “Biz- buyuklar avlodi” bo‘limida o‘quvchilar o‘zbek adabiyoti tarixida juda katta o‘rin egallaydigan A.Navoiy




haqidagi “G‘azal mulking sultoni”, A.Navoiyning hikmatli so‘zlari, Oybekning “Alisherning yoshligi” hikoyasi, “Non isi” rivoyati bilan tanishadilar.

Bo‘limda shuningdek, qomusiy olim, tibbiyot ilmining allomasi Abu Ali ibn Sino haqida ilmiy-ommabop maqola, Mirkarim Osimning “Kitobga mehr” hikoyasini o‘qiydilar.

O‘zbek xalq tarixida buyuk actronom sifatida o‘rin olgan Mirzo Ulug‘bek haqida “Buyuk munajjim” maqolasini, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur haqida “Shoh va shoir” maqolasini, G‘.Komilovning “Ona sabog‘i” hikoyasini o‘qib o‘rganadilar.

Bo‘limda davlat arbobi Amir Temuur haqida Muhammafd Alining “Amir Temur” maqolasi hamda “Amir Temur o‘gitlari” ham o‘rin olganki, ularni o‘qish bilan o‘quvchilarning Vatanimiz tarixida chuqur iz qoldirgan allomalar haqidagi bilamlari yanada kengayadi.



II bob


1-sinfda “O‘qish kitobi” darsligidagi “Biz buyuklar avlodi” bo‘limi materiallarini o‘rganish yo‘llari

2.1. Bo‘limdagi ilmiy-ommabop maqola va hikmatli so‘zlarni o‘rganish

Hozirgi kunda barkamol shaxs tarbiyasi davlat siyoati darajadagi ko‘tarilganligi sababli, har tomonlama yetuk, erkin fikrlovchi, go‘zal xulqi, barcha axloqiy fazilatlarga ega barkamol shaxsni kamol toptirish tarbiyaning asosiy maqsadi etib belgilangan. Shuningdek, barcha axloqiy fazilatlarning asosini ham ezgulik tashkil etadi. Barkamol shaxsni tarbiyalash uchun esa, eng avvalo, yoshlarda ezgulik tuyg‘ularini shakllantirishimiz kerak. Zero, O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, davlat tomonidan olib borilayotgan keng ko‘lamli islohatlarga ham ezgulik yo‘lida amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlarini ko‘rishimiz mumkin.

Bugungi kunda, hukumatimiz tomonidan barkamol avlod tarbiyasiga, umuman, ta‘lim sohasiga katta e‘tibor qaratilmoqda. Bu e‘tibor o‘qituvchi-pedagoglar zimmasiga yoshlarni Vatanga muhabbatli, e‘tiqodli, mehr-muruvvatli, oqil, halol, insonparvar, xalqparvar etib tarbiyalashdek mas‘uliyatni qo‘ymoqda. Ana shu fazilatlarni o‘zida mujassam eta olgan yoshlargina yuksak axloqqa erishgan barkamol shaxs bo‘la oladilar.

Prezidentimiz va xalqimiz orzu qilgan barkamol avlodni tarbiyalash ham tom ma‘nodagi ezgulik g‘oyasidir. Aslida ham hukumatimiz tomonidan yoshlarning o‘qishi, bilim olishi uchun yaratilayotgan shart- sharoit va imkoniyatlar xalqimiz, davlatimiz kelajagi, ertangi kunini o‘ylab qilinayotgan ezgu ishlar hisoblanadi. Zero, kelajak yoshlar qo‘lida, jamiyat taraqqiyoti, kelajagi bugun o‘sib-ulg‘ayayotgan avlodlarimiz qo‘lidadir. Xususan, Yurtboshimiz ta‘kidlaganlaridek, "... har qaysi davlat, har qaysi millat, avvalo, o‘z farzandlari qiyofasida, unib-o‘sib kelayotgan yosh avlod timsolida shu xalqqa xos xususiyat va fazilatlarni namoyon etadigan, uning azaliy orzu-intilishlarini ro‘yobga




chiqaradigan buyuk kuchni ko‘radi. Farzandlarimiz, yoshlarimiz bizning nafaqat ishonchimiz va kelajagimiz, yoshlarimiz bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchidir". Davlatimiz miqyosida olib borilayotgan sa'y-harakatlarning barchasida mustaqil O'zbekistonimizda ezgulikning ulug'lanishi, ya'ni, avvalo, hayotda inson omilini va uning qadr-qimmatining ulug'lanishi, xalqimizda insoniylik, mehr- muruvvat, o'zaro munosabat, adolatpeshalik kabi ezgulik tamoyillari oliy o'rinda turishini ko'rishimiz mumkin.

Boshlang'ich sinflardagi o'qish ta'limi yosh avlodning olamni anglashiga, unda eng yaxshi insoniy fazilatlar shakllanishiga katta yordam beradi. Shuning uchun ham "O'qish ktobi" darsliklarida turli mavzudagi va turli janrlardagi asarlar beriladi. Bu asarlar ta'limiy, axloqiy xarakterda bo'lib, ular o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishida juda katta o'ringa ega bo'ladi.

Yosh avlodni har tomonlama rivojlangan inson qilib tarbiyalashda 1-sinf o'qish darslari katta ahamiyat kasb etadi. 1-sinf o'qish darslari boshlang'ich sinflardagi boshqa darslardan o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra farqlanadi. 1-sinf o'quvchisi matnni to'g'ri, tez, tushunib o'qish, mazmunini o'zlashtirish bilan ilk bor o'qish darslarida tanishadi. 1-sinf o'qish darslari orqali o'quvchilarning Davlat ta'lim standartlari (DTS) talablari bo'yicha o'zlashtirishlari ko'zda tutilgan o'quv-biluv ko'nikma-malakalari hamda bilimlarni egallashlariga yo'l ochiladi.

1-sinf o'qish darslari savod o'rgatish davrida o'quvchilarni bo'g'in, so'z va gaplar bilan tanishtirish va ularni o'qish, rasmlar asosida hikoya qilish tarzida uyushtirilsa, o'qish texnikasi egallangandan so'ng o'qish muayyan mavzular bo'yicha tanlangan badiiy, ilmiy-ommabop matnlar yuzasidan olib boriladi.

Boshlang'ich ta'lim bo'yicha DTS va «Ona tili» o'quv dasturida o'qish ta'limi oldiga qo'yilgan talablarni amalga oshirish sinfda o'qishni to'g'ri tashkil qilish, o'qitish bosqichlari, tamoyillari va metodlari, birinchi navbatda, ilg'or pedagogik texnologiyalardan o'rinli foydalanishga ko'p jihatdan bog'liqdir.



Ma'lumki, sinfda o'qish asosida badiiy va ilmiy-ommabop matnlar turadigan. O'quvchilarni matn bilan tanishtirish o'qishga tayyorgarlik bosqichidan boshlanadi.

Boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida o'rganiladigan asarlarning mavzu doirasi ancha keng bo'lib, ona tabiat, yil fasllari, xalq og'zaki ijodi, mehnatga muhabbat, asosiy bayram sanalari, milliy istiqlol va ma'naviyat kabi umumiy mavzular doirasida birlashtirilgan.⁷

Uzluksiz ta'limning boshqa bosqichlaridan farqli o'laroq, boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida o'quvchilarning o'qish malakalarini shakllantirish, asar matni ustida ishlash ta'limning didaktik maqsadi hisoblanadi. U turli mavzudagi matnlar ustida ishlash orqali ma'naviy-ahloqiy, adabiy - estetik tarbiya bilan chambarchas bog'lab olib boriladi.⁸


Shunga ko'ra o'qish darslarining yetakchi xususiyati o'quvchilarning savodxonligini ta'minlash bilan birga badiiy adabiyotning sehrli olamiga olib kirish, milliy mafkura asosida yuksak axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratiladi.

O'qish ta'limi bo'yicha o'quvchilarni faqat matn bilan tanishtirish yordamida dastur talablariga javob berib bo'lmaydi. Negaki matn tagzaminidagi tarbiyaviy g'oya uni tushunish, idrok qilish natijasidagina ochiladi. Boshqacha aytganda, har qanday asardagi sehr-joziba matn zaminidagi yashirin mazmun-mohiyatni anglab yetilganda o'quvchi diqqatini o'ziga jalb etishi mumkin. Bunga adabiy-nazariy tushunchalarni o'zlashtirish, adabiy tahlil malakalarini shakllantirish orqali erishiladi.

O'qish darslari uchun tanlangan mavzular o'quvchilarga kundalik hayot, mustaqillikni mustahkamlash va insoniy munosabatlar bo'yicha ham bilim va tarbiya berishni ko'zda tutadi. Bular ichida istiqlol, vatan, ma'naviyat va tabiat

⁷ Qosimova K., Matchonov S., Gulomova X., Yo'ldasheva SH., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. -Toshkent, «Nosir», 2009.

⁸ Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi// Boshlang'ich ta'lim, 1998, 6-son, 6-bet.



haqidagi mavzular alohida ajralib turadi. Ulardan ko‘zlangan maqsad o‘zlik, anglash, istiqlool, vatan va tabiat bilan bog‘liq tuyg‘ularini uyg‘otishdir.

1-sinfda o‘rgatiladigan “Biz- buyuklar avlodi” bo‘limidagi har bir mavzu uchun tanlangan matnlarning janriy rang-barangligiga, poetik mukammalligiga, o‘quvchilarning bilim darajasi va yosh xususiyatlariga mos kelishiga alohida e‘tibor qaratiladi.


Bo‘lim materiallari Vatanimiz o‘tmishi, xalqimiz hayoti, mardonavor kurashi, ulug‘ siymolar tomonidan amalga oshirilgan ishlar, tarixiy sanalar to‘g‘risida muayyan tasavvur beradi. Xususan, Amir Temur, Alisher Navoiy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek va Z.M.Bobur haqidagi ilmiy ommabop maqolalar shular jumlasidandir.

Bu matnlar o‘quvchilarni faqat o‘tmishimiz, unda yashab o‘tgan buyuk ajdodlar bilan tanishtirib qolmasdan, Vatan oldidagi farzandlik burchi va mas‘uliyatini teran anglashga ham yordam beradi. Ularda Vatanga muhabbat tuyg‘usi shu tariqa shakllanadi.

Ona-Vatanimizda yashab o‘tgan buyuk insonlar haqida hikoya qilingan matnlar bilan tanishish va ularni tahlil qilish jarayonida o‘quvchilar o‘tmish bilan bugungi kunni taqqoslash imkoniga ega bo‘ladilar. Jamiyat taraqqiyoti xususida qisqacha bo‘lsa-da, tushuncha hosil qiladilar.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari 1-sunfdan boshlab juda ko‘p matnlarni o‘qiydilar. Bu matnlarni o‘qish darslarida o‘qituvchi ko‘zlangan maqsadni nazarda tutib turli metodlarni qo‘llaydi. 1-sinfda Amir Temur, A.Navoiy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulugbek va Bobur haqidagi ilmiy-ommabop maqolalarni izohli o‘qish darsini uyushtirishda quyidagi reja asos qilib olinishi mumkin:

1. O‘qiladigan matn yuzasidan bolalar tajribasi va bilimini aniqlash, ularni matn mazmunini tushunishga tayyorlash maqsadida taxminiy suhbat o‘tkazish;
2. Maqolani yoki uning ma‘lum bir qismini o‘qish, o‘quvchiga notanish bo‘lgan so‘zlar ma‘nosi ustida ishlash;
3. Maqola rejasini tuzish;
4. O‘qilgan maqola yuzasidan suhbat uyushtirish;





5. Matnning asosiy mazmunini aniqlash va reja qismlarini yoritish;
6. Reja asosida maqolani qayta o‘qish;
7. Maqolani yaxlit o‘qish. Bunda bolalarni qayta hikoyalashga tayyorlash va maqola mazmunini yaxshi o‘zlashtirishlariga erishish maqsadi ko‘zda tutiladi;
8. Reja asosida qayta hikoyalash;
9. Xulosalash va umumlashtirish.

Shu reja asosida 1-sinfda Amir Temur haqidagi matnni hamda uning hikmatli so‘zlarini o‘rganish darsining texnologik xaritasini tuzish va shu asosda darsni tashkil qilish maqsadga muvofiqdir.

Darsning texnologik xaritasi

<u>Mavzu:</u> Amir Temur o‘g‘itlari. <i>(Muhammad Ali)</i>
Mavzuga doir tayanch tushunchalar: Sohibqiron, Amir Temur, Turkiston, “Kuch - adolatda”, millat, vatan sharafiga, betakror siymo, o‘g‘itlar.
<u>Soatlar soni:</u> 1 soat.
Mavzuning qisqacha ta’rifi: Sohibqiron, Amir Temuning buyuk davlatga asos solganligi, uni dunyoga tanitganligi, yurt, millat ravnaqi uchun olib borgan ishlari aytilgan. Amir Temuning do‘stlik, aql va adolat haqidagi o‘g‘itlaridan namunalar berilgan.
O‘quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi: Metod: Suhbat, tushuntirish, muammoli izlanish, didaktik o‘yin, munozara. Shakl: jamoa, guruh bilan ishlash. Jihoz: Amir Temur portreti. Nazorat: O‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi. Baholash: O‘quvchilar reytingi dars oxirida e’lon qilinadi.
<u>Darsning maqsad va vazifalari</u>
Maqsadlar: Ta’limiy: O‘quvchilarning o‘qish malakalarini takomillashtirish. Vatanimiz o‘tmishi haqidagi bilimlardan xabardor qilish. Tarbiyaviy: Vatanimiz o‘tmishiga hurmat, buyuk ajdodlarimiz merosini



o'rganishga qiziqish, Vatan tarixiga qiziqish uyg'otish.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilaning to'g'ri, ifodali o'qish malakalarini rivojlantirish. Vatanga muhabbat tuyg'ularini rivojlantirish.

Kutilayotgan natija

Dars yakunida o'quvchilar matnni to'g'ri va ifodali o'qish malakasiga ega bo'ladilar. Ulug' bobomiz Amir Temur haqidagi ma'lumotlarni o'zlashtiradilar

Dars jarayoni va texnologiyasi

Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
1-bosqich Tashkiliy qism	O'quvchilar davomati aniqlanadi. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi.	Suhbat	2 daqiqa
2-bosqich (Refleksiya) ehtiyajlarni aniqlash	Dars davomida rioya qilish lozim bo'lgan qoidalar belgilanadi. Dars shiori ishlab chiqiladi.	Munozara	2 daqiqa
3-bosqich darsning borishi.	1. O'qituvchining O'zbekistonda yashab o'tgan mashhur kishilar haqidagi kirish suhbat 2. Matnni o'qishga tayyorgarlik. 3. Matnni va hikmatli gaplarni o'qituvchi o'qib beradi. Matn mazmuni va o'gitlaning ma'nosi tushuntiriladi. 4. "Kuch - adolatda" degan o'gitning ma'nosi ustida ishlanadi 5. Lug'at ustida ishlash.	Savol-javob suhbat ifodali muammoli izlanish tushun-	3 daqiqa 2 daqiqa 6 daqiqa 3 daqiqa 6 daqiqa

	6. O'quvchilar matnni va o'gitlarni o'qiydilar.	ifodali o'qish	2 daqiqa
	7. Topshiriq bilan o'qish. Har bir hikmatli gapni o'qib, mazmunini so'zlash topshiriladi.	muammoli hizlanish	11 daqiqa
4-bosqich	1. Darslikdagi savollar asosida dars umumlashtiriladi.	suhbat	3 daqiqa
mustahkamlash	2. "Zanjir" didaktik o'yini.	Didaktik o'yin	2 daqiqa
5-bosqich	O'quvchilarning darsda ishtiroki hisobga olinib, reytinggi e'lon qilinadi va dars yakunlanadi.		2 daqiqa
6-bosqich	Amir Temur o'gitlarini yod olish topshirig'i beriladi.	tushuntirish	1 daqiqa

Darsning borishi:

1. O'qituvchi quyidagi savollar orqali kirish suhbatini o'tkazadi:

- Vatanimiz O'zbekistonda yashab o'tgan mashhur kishilardan kimlarni bilasiz?
- Ular qanday ezgu ishlar qilishgan?

O'quvchilar javoblarini umumlashtirib, o'qituvchi bugun yangi bobni o'qishga o'tilgani, unda ajdodlarimiz haqidagi ma'lumotlarni o'rganishlarini aytadi.

- Siz bu bo'limda dunyoni o'z bilim va mahoratlari bilan qoyil qoldirgan boblarimiz Amir Temur, Alisher Navoiy, Abu Ali ibn Sino, Ulug'bek Mirzo, Bobur Mirzolar haqidagi ma'lumotlar bilan tanishasiz. Bugun Siz ana shunday mashhur bobokalonlarimizdan bo'lmish Amir Temur haqidagi ma'lumotlarni o'rganasiz.

2. Matnni o'qishga tayyorgarlik. O'qituvchi Vatanimiz o'tmishi haqida so'zlab ulug' Sohibqiron Amir Temurning kim bo'lganligi, uni hozirgacha ham



xalqimiz unutmaganligi, uning ko'rsatmalaridan, hikmatli so'zlaridan foydalanish haqida bolalar yoshi saviyasiga mos qilib so'zlaydi.

O'qituvchi: Bobomiz Amir Temur buyuk sarkarda va davlat arbobi bo'lish bilan birgalikda farzandlari, nabiralari va kelajak avlod uchun o'zlarining pand-nasihatlarini yozib qoldirganlar. Bu o'gitlarning barchasi insonlarni yaxshi xulqli va adolatparvar bo'lishga undaydi. Amir Temurning o'zi ham bu o'gitlarga doimo rioya qilgan. Keling, hozir bobomiz o'gitlari bilan tanishib chiqamiz.

3. Matnni va hikmatli gaplarni o'qituvchi o'qib beradi. Matn mazmuni va o'gitlarning ma'nosi tushuntiriladi. "Kuch - adolatda" degan o'gitning ma'nosiga e'tibor qaratiladi va bugungi kun bilan bog'lanadi. Adolat so'zining ma'nosi tushuntiriladi. Qayerdagi haqiqat bo'lsa, to'g'rilik bo'lsa o'sha yerda hamma yaxshi yashashi, har qanday muammolar to'g'ri hal etilishi bolalar yoshiga mos tushuntiriladi.

4. Lug'at ustida ishlash:

sarkarda - Vatan himoyachilari boshlig'i

hikmat - ibratli so'zlar

adolat - haqiqat, to'g'rilik

Munofiq - yolg'onchi, yomon kishi

kalima - jumla

ont - qasam

yov - dushman

5. O'quvchilar matnni va o'gitlarni ichda o'qiydilar. Matn va o'gitlar navbat bilan o'quvchilarga o'qitiladi


6. Topshiriq bilan o'qish. Har bir hikmatli gapni o'qib, mazmunini so'zlash topshiriladi. O'qituvchi o'quvchilar javoblarini to'ldiradi.

7. Savol-javob asosida dars mustahkamlanadi va umumlash tiriladi.

Umumlashtirishda zanjir o'yinidan ham foydalanish mumkin.

(buyuk, kuch adolatda. adolat, Temur.)

Yangi mavzuni mustahkamlash qismida quyidagi testlarning to'g'ri javoblari toptirilsa yanada yaxshi bo'ladi.



1. Kimdan qo‘rqish kerak?

A. Dushmandan

B. Munofiqlardan

2. Botir qachon bilinadi?

A. Yovda

B. Ovda

3. Sodiqlar do‘st qanday bo‘ladi?

A. Do‘stini ranjitmaydi.

B. Do‘stining aytganlarini bajaradi.

7. Uyga vazifa. Amir Temur haqidagi ma’lumotlarni o‘rganib kelish va o‘g‘itlarning ayrimlarini yod olish.

Bu dars o‘quvchilarga buyuk bobokalonimiz haqida tasavvur hosil qilishga xizmat qiladi.

Istiqlol sharofati bilan milliy qadriyatlarimiz, ma’naviy merosimizni o‘rganish, tadqiq qilish va hozirgi hamda kelgusi avlodga yetkazish vazifasi eng dolzarb masalaga aylandi. Barkamol inson tarbiyasida milliy madaniyatimiz, milliy ma’naviyatimiz, qadriyatlarimiz beqiyos kuchdir. Ana shunday boy ma’naviy ijod mahsuli Alisher Navoiyga tegishlidir.

Hozirgi kunda har tomonlama kamol topgan bilimli, ziyoli, tarbiyali, shaxsni voyaga yetkazish g‘oyasi yuqori o‘rinda turadi. Bu vazifalarni amalga oshirishda ma’naviy merosimizning, ayniqsa Navoiy ijodining ahamiyati beqiyosdir.

Prezidentimiz I.A. Karimov aytganlaridek, “Axloq – ma’naviyatning o‘zagidir”. Navoiy asarlari aynan inson qalbida vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat, odamiylik va insonparvarlik g‘oyalarini paydo qiladi, tarbiyalaydi.

O‘zbekistonda Navoiy nomini bilmaydigan, u haqda eshitmagan inson yo‘q. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ham maktabga ilk qadam qo‘yganlaridan buyuk bobokalonimiz nomini juda yaxshi biladilar. Ular 1-sinfda darslikning “Biz-buyuklar avlodi” bo‘limidan A.Navoiy haqidagi “So‘z mulkingning sultoni” matni, va uning to‘rt hikmatli so‘zlari ham o‘rin olgan. Bu matn va hikmatli so‘zlarni o‘rganish darsi kirish suhbatida o‘quvchilarning



A.Navoiy haqidagi bilganlari asos qilib olinadi. Matnni o'rganishda A.Navoiy haqida o'quvchilarning nimalarni bilishlari aniqlangach, shu narsa asosida darsni tashkil qilishga e'tibor qaratiladi. O'qituvchi matnni va hikmatli s'ozlarni ifodali o'qib beradi, bu paytda o'quvchilar kitoblarini yopib qo'yib, uni diqqat bilan tinglaydilar.

Matn ifodali o'qilgach, uning mazmuni yuzasidan suhbat uyushtiriladi:

- 1.Matn kim haqida ekan?
- 2.A.Navoiy haqida nimalarni bilasiz?
- 3.U haqdagi qanday asarlar bilan tanishgansiz?
- 4.A.Navoiy haqida qanday film va videofilmlarni tomosha qilgansiz?
- 5.A.Navoiy qahramonlaridan kimlarning nomini bilasiz?

Javoblar umumlashtiriladi. Shundan so'ng o'quvchilarga har bir hikmatli s'oz o'qitilib, shu hikmatli so'zlarda shoir nima demoqchi bo'lganligi tushuntiriladi. Matndagi tilning tasviriy ifoda vositalari ustida ishlanadi:

G'azal mulkining sultoni- tasviriy ifoda vositasi.

Shu o'rinda A.Navoiyga yurtboshimiz bergan ta'rifni ham keltirib o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi: "Agar bu ulug' zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir". O'qituvchi bu berilgan yuksak ta'arifning mazmun-mohiyatini o'quvchilarga tushuntirib bermog'i lozim bo'ladi.

"G'azal mulkining sultoni" matni va A.Navoiy hikmatli so'zlari o'rganiladigan darsning texnologik xaritasini quyidagicha tuzish mumkin:

Darsning texnologik xaritasi

Mavzu: So'z mulkining sultoni. *{Alisher Navoiyning hikmatli so'zlari}*

Mavzuga doir tayanch tushunchalar: Alisher Navoiy, buyuk shoir, olim, davlat arbobi, asarlar, shoirlar sultoni, hikmatli so'zlar.

Soatlar soni: 1 soat.

Mavzuning qisqacha ta'rif: Alisher Navoiyning buyuk shoir, ohm va davlat arbobi bo'lganligi, besh-olti yoshidanoq ko'p she'rlarni yod bilganligi,



bizlar uchun ko‘p asarlar yozib qoldirgani matnda aytilgan. Hikmatli gaplariga namunalar berilgan.

O‘quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:

Metod: Suhbat, tushuntirish, muammoli izlanish, ifodali o‘qish, testlar, munozara.

Shakl: jamoa, guruh bilan ishlash.

Jihoz : Mavzuga oid plakatlari, Alisher Navoiy portreti, hikmatli so‘zlari yozilgan plakatlari.

Nazorat: O‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: O‘quvchilar reytingi dars oxirida e‘lon qilinadi.


Darsning maqsad va vazifalari Maqsadlar:

Ta‘limiy: O‘quvchilarning to‘g‘ri va ravon o‘qish malakalarini takomillashtirish. Lug‘at boyligini oshirish, mustaqil fikrlashga o‘rgatish.


Tarbiyaviy: Alisher Navoiy merosini o‘rgatish orqali vatanparvarlik, axloq va odob, insonparvarlik sifatlarini tarbiyalash. Shuningdek, tariximizga, ajdodlarimiz merosiga qiziqishni rivojlantirish. Vatanimiz o‘tmishiga hurmat, buyuk ajdodlarimiz merosini o‘rganishga qiziqish, Vatan tarixiga qiziqish uyg‘otish.

Rivojlantiruvchi: O‘quvchilarning to‘g‘ri, ifodali o‘qish malakalarini rivojlantirish. Vatanimiz o‘tmishi, unda yashab o‘tgan allomalar hayotiga oid ma‘lumotlarni o‘rgatish orqali Vatanga e‘tiqod tuyg‘ularini rivojlantirish.

Kutilayotgan natija			
Dars yakunida o‘quvchilar matnni to‘g‘ri va ifodali o‘qish malakasiga ega bo‘ladilar. Ulug‘ bobomiz Alisher Navoiy haqidagi ma‘lumotlarni o‘zlashtiradilar.			
Dars jarayoni va texnologiyasi			
Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
I-bosqich	O‘quvchilar davomati aniqlanadi.	Suhbat	2 daqiqa
Tashkiliy	Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi.		



qism			
2-bosqich (Refleksiya) ehtiyojlari aniqlash	Dars davomida rioya qilish lozim bo'lgan qoidalar belgilanadi. Dars shiori ishlab chiqiladi.	Munozara	2 daqiqa
3-bosqich Darsning borishi.	1. O'tgan dars haqidagi bilimlarini tekshirish. 2. Matnni o'qishga tayyorgarlik. Alisher Navoiy haqida o'qituvchining kirish suhbat. 3. Alisher Navoiy haqidagi matn o'qib beriladi va mazmuni tushuntiriladi. 4. O'qituvchi hikmatli so'zlarni o'qib beradi va har bir hikmatli so'zga izoh beradi. 5. Lug'at ishi. Qiyin so'zlarga izoh beriladi. 6. O'quvchilar matnni va o'g'itlarni o'qiydilar. 7. Topshiriq bilan o'qish. Har bir hikmatli gapni o'qib, mazmunini so'zlash topshiriladi.	Savol-javob suhbat ifodali o'qish muammoli izlanish tushuntirish h ifodali o'qish muammoli izlanish	6 daqiqa 3 daqiqa 5 daqiqa 6 daqiqa 2 daqiqa 5 daqiqa 6 daqiqa
4-bosqich Mustah- kamlash	1. Mavzuni mustahkamlashda testlardan foydalaniladi. 2. Boshqotirma hal etiladi.	Test	3 daqiqa 3 daqiqa
5-bosqich Baholash	O'quvchilarning darsda ishtiroki hisobga olinib, reytinggi e'lon qilinadi va dars yakunlanadi.		2 daqiqa
6-bosqich	Alisher Navoiy o'g'itlarini yod olish topshirig'i beriladi.	tushun- tirish	1 daqiqa



Darsning borish:

1. O'qituvchi:

- Bolalar biz o'tgan darslarda ajdodlarimizdan kimni o'rgandik?
- Amir Temur bobomizni.
- U kishi kim bo'lgan ekanlar?
- Buyuk sarkarda bo'lganlar.

Amir Temur o'gitlaridan qaysilarini bilishlari so'raladi.

- Amir Temur do'stlik haqida nima degan ekanlar?
- Aql va adolat haqidagi hikmatli so'zlarini yoddan ayting.
- O'quvchilar Amir Temur o'gitlarini aytadilar. Buni qatorlararo musobaqa tarzida o'tkazish mumkin. Agar o'quvchilar o'gitlarni aytishga qiynalsalar "Davom ettir" o'yinidan foydalanish mumkin. Ya'ni o'qituvchi aytishni boshlaydi o'quvchilar birma-bir davom ettiradilar.

O'qituvchi bolalar javoblarini umumlashtirib Amir Temur o'gitlarining ma'nosini yana bir marta tushuntiradi.

- Bugun biz ajdodlarimizdan yana bir kishi bilan tanishamiz.

1. Xattaxtaga Alisher Navoiyning rasmi ilinadi. Bolalardan o'qituvchi so'raydi.

- Bu kishi kim bo'ladilar. Bilgan o'quvchilar aytadi, bilmagan o'quvchilarga o'qituvchi yordam beradi.

2. O'qituvchi Alisher Navoiy haqida, uning tug'ilgan yili, joyi, oilasi haqida ma'lumot beradi. U kishining do'rug'i olamga ketganligi, u o'zining g'azallari va bir qancha kitoblari bilan mashhurligini aytadi. (Imkoni bo'lsa Alisher Navoiy haqidagi kinofilmdan foydalaniladi).

3. Alisher Navoiy haqidagi matnni o'qib beradi. O'quvchilar diqqat bilan tinglaydilar. Savol-javob asosida matn mazmuni tushuntiriladi. Alisher Navoiyning yoshligi haqida qiziqarli qilib gapirib beradi.

4. O'qituvchi: Bolalar Alisher Navoiy bizga juda ko'plab she'rlar bilan birga bir qancha hikmatli so'zlarni ham yozib qoldirgan. Biz bugun ularni o'rganamiz.



5. O'qituvchi hikmatli so'zlarni o'qib beradi va har bir hikmatli so'zning izoh beradi. Mazmunini tushuntiradi.

6. Lug'at ishi:

Olim - ilm- fanni rivojlantirishga hissa qo'shgan kishi

orlanib - uyalib, tortinib

dono - hamma narsani biluvchi

7. O'quvchilarga o'qitish. Avval ichda o'qish topshiriladi. Keyin hikmatli so'z 4 ta bo'lganligi uchun ham awal yaxshi o'qiydigan 4 ta o'quvchiga, keyin boshqa o'quvchilarga o'qitiladi. Mazmuni so'zlatiladi.

8. Yangi mavzuni mustahkamlash.

Testlar:

1. Bilmaganni orlanib so'ramagan kim bo'ladi?

a) Olim

b) Zolim

2. Oz-oz o'rgansa nima bo'lar ekan?

A. Dono

B. Daryo

3. Yaxshi kishi qanday bo'ladi?

A. Yomonlarga ham yaxshilik qiladi.

B. Yaxshi bo'ladi.

4. Yaxshilik qilishni bilmasa nima qilish kerak ekan?


A. Yaxshilarga qo'shilish.

B. Yomonlik qilish.

Darslikdagi boshqotirmani yechishga o'quvchilar diqqati qaratiladi.

9. Dars xulosalanadi, o'quvchilar reytingi e'lon qilinadi. Hikmatli so'zlarni yod olish topshiriladi.

“Biz – buyuklar avlodi” bo'limidagi “Abu Ali ibn Sino” va “Buyuk munajjim”, “Shoh va shoir” ilmiy-ommabop maqolalarini o'rganish darsini ham shu tarzda tashkil qilish mumkin bo'ladi.



2.2. Bo‘limdagi rivoyat va hikoyalarni o‘rganish yo‘llari.

Boshlang‘ich sinflarda badiiy asarni o‘rganish hayotni obrazlar orqali anglashga yordam beradi, bolalar qalbida chuqur iz qoldiradi. Zero, tafakkur jarayoni insonning ko‘ngli, ruhiyati bilan uzviy bog‘liqlikda kechadi.⁹ Shuning uchun ham boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida badiiy asarlarni o‘rganish bolalarning ma‘naviy dunyosini boyitadi va ularda eng yaxshi insoniy fazilatlarni tarbiyalaydi. Yurtboshimiz ta‘kidlaganlaridek, “Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamalakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro‘-e‘tibori avvalambor farzandlarimizning unib-o‘tib, ulg‘ayib, qanday inson bo‘lib hayotga kirib borishlariga bog‘liqdir. Biz bunday o‘tkir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak”.¹⁰ Binobarin, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga axloqiy va estetik tarbiya berishning muhim vositasi bo‘lgan badiiy adabiyotning hikoya janri yosh avlod tarbiyasida alohida o‘rin tutadi.

1-sinf o‘quvchilari ham “Biz-buyuklar avlodi” bo‘limida A.Navoiy haqida Oybekning “Alisherning yoshligi” hikoyasi, Abu Ali ibn Sino haqidagi Mirkarim Osimning “Kitobga mehr” hilyasi hamda Z.M.Bobur haqida G‘iyos Komilovning “Ona sabog‘i” hikoyasi bilan tanishadilar.

Ma‘lumki, hikoya kichik hajmli epik tur janrlaridan bo‘lib, unda kishi hayotidagi ma‘lum bir voqea, hayotning muhim tomonlari umumlashtirilib tasvirlanadi. Hikoya shakli nisbatan cheklangan, kichik esa-da, katta mazmunni ifodalashga qodir. Hikoya ko‘pincha kishi hayotida bo‘lgan bir epizodni tasvir etadi.¹¹ Hikoyaning mazmuni ertakdagidan ortiqroq hayotiyroqdir.¹²


Hikoya mazmunan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun mos janr hisoblanadi. Kichik yoshdagi o‘quvchilarni qahramonning xatti-harakati, tashqi ko‘rinish, portret tasviri, voqea-hodisalar haqidagi hikoyalar ko‘proq qiziqtiradi.

⁹ Husanboyeva Q. Adabiyot-ma‘naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili.-Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milli kutubxonasi nashriyoti, 2009, 10-bet.

¹⁰ Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat-yengilmas kuch.- Toshkent: “Ma‘naviyat”, 2008.

¹¹ Salayev F., Qurbonniyozov G. Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so‘zligi.-Toshkent:”Yangi asr avlodi”, 2010, 327-bet.

¹² Sulton I. Adabiyot nazariyasi.- Toshkent:” O‘qituvchi”, 1980, 245-bet.



Shuning uchun bolalarni badiiy asar turi bo'lgan hikoya bilan tanishtirish uning syujetini tushuntirishga bog'lab olib boriladi.¹³

Boshlang'ich sinflarda hikoyalarni o'qitishga bag'ishlangan izohli o'qish darslarida o'qilgan hikoya mazmunini ochish, lug'at ustida ishlash, o'qilgan matnni qayta hikoyalash asosiy ish turlaridan hisoblanadi.

Hikoya mazmuni odatda savollar asosida tahlil qilinadi. Bunda savollar qatnashuvchi shaxsning xatti-harakati va xarakterini tahlil qilishga qaratilgan bo'ladi. So'roqlardan ikki maqsadda: hikoya mazmunini tahlil qilish hamda faktlar, mulohazalar, xulosalarni taqqoslash; voqea-hodisalar, xatti-harakat o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash va umumlashtirish uchun foydalaniladi.


Hikoyani o'qish darsida o'quvchilar ma'nosini tushunmaydigan so'z va iboralar ma'nosini tushuntirish ham muhim, aks holda, ular hikoya mazmunini tushuna olmaydilar. So'z ma'nosini tushuntirishga ko'p vaqt sarflamay, asar mazmunini tushunishda eng zarur bo'lgan so'zni izoh berish bilan tushuntiriladi.

Hikoyani o'qishda hikoya mazmunini tahlil qilish va shu asosda o'quvchilar nutqini o'stirish markaziy o'rin egallaydi. Hikoya o'qilgach, o'quvchilar o'ylashi, o'z mulohazalarini aytishi uchun tayyorlanishga vaqt berish talab etiladi. O'qilgan asar yuzasidan beriladigan dastlabki savollardan maqsad hikoya bolalarga yoqqan-yoqmagani, undagi qaysi qahramonning xarakteri bolaga ta'sir etgani, bolalar rim yoki nima haqida hikoya qilib berishni istashini bilishdan iborat. Shundan keyingina hikoya syujeti, voqea-hodisaning yo'nalishini ochishga, sharoitni, personajlar xarakterini tushunishga, nihoyat, asarning asosiy g'oyasini bilib olishga yordam beradigan savollardan foydalaniladi.¹⁴

Badiiy asarni tahlil qilishda syujetni to'liq tushuntirishga berilib ketib, qatnashuvchilarga tavsif, asar qurilishi va tilini tahlil qilish kabi ish turlari e'tibordan chetda qolmasligi lozim.

¹³ Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X. va b. Ona tili o'qitish metodikasi.- Toshkent: "Nosir" nashriyoti, 2009, 113-bet.

¹⁴ Xo'jayev A. Izohli o'qish metodikasining ba'zi masalalari.- Toshkent: "O'qituvchi", 1968, 27-bet.




Savollarni, odatda, o'qituvchi beradi, ammo asar mazmuni, qatnashuvchi shaxslarning xulq-atvorini ochish yuzasidan o'quvchilarga ham savol tuzdirish juda foydali. Bu usul bolalarga juda yoqadi va ishni jonlantiradi; asar mazmunini yaxshi tushunish, o'z fikrini izchil bayon qilish malakasini egallash, mazmun va voqealar orasidagi bog'lanishni to'liq esda saqlab qolishda o'quvchilar yordam beradi.

Hikoyalarni o'quvchilar yaxshi o'zlashtirishlari, unda ilgari surilgan g'oyani bilib olishlari uchun matn bilan ishlash jarayonida tanlab o'qish, savollarga javob berish jarayonida tanlab o'qish. Ma'lum topshiriq bilan qayta o'qish, savollarga javob berish hikoya qismiga o'zlari savol tuzish, so'z bilan grafik rasm chizish, reja tuzish, qayta hikoyalashning barcha turlaridan, ifodali o'qishga tayyorlanish kabi ish turlaridan foydalaniladi.

Darslikdagi hikoyalarni o'qishda hikoyaning hajmi, mazmuni hisobga olinadi va darsning maqsadi aniq belgilanadi. Hajmi jihatidan uncha katta bo'lmagan hikoyani o'qish darsini uyushtirishda quyidagi reja varianti asosga olinishi mumkin:

1. Hikoyani o'qishga tayyorlanish.
2. Hikoyani ovoz chiqarib yoki ichda o'qish.
3. Hikoya mazmunini o'quvchilar qanchalik idrok etganini tekshirib ko'rish.
4. Hikoyani ovoz chiqarib qayta o'qish va mazmunini chuqur tahlil qilish uchun suhbat o'tkazish.
5. Hikoya mazmunini qayta hikoya qilish.
6. Yakunlovchi suhbat.
7. Ifodali o'qishga yoki ijodiy ishga tayyorlanish.
8. Hikoyani ifodali o'qish yoki sahnalashtirish.
9. Hikoya matni mazmuni yuzasidan berilgan savollarga javob topish, reja tuzish, ijodiy qayta hikoya qilishga tayyorlanish kabi topshiriqlarni bajarish va uning qanday bajarilganligini tekshirish.
10. Darsni yakunlab uyga vazifa berish, keyingi darsda hikoya yuzasidan



takroriy mashgʻulot oʻtkazish mumkin.

11. Hikoyaning ayrism oʻrinlarini tanlab oʻqish. Qayta hikoya qilish, mazmuni asosida rasm chizish uchun suhbat oʻtkazish.

12. Lugʻat ishi.

13. Oʻquvchilarning bilimlarini tekshirish.¹⁵

Hikoyani oʻqishda nimalarga alohida ahamiyat berish kerak? Birinchi navbatda, hikoya mazmuni – voqealar rivoji, qatnashuvchilarning xatti-harakati va xarakteriga xos xususiyatlari ularning yashash sharoitlari bilan bogʻliq holda qaraladi.

Bu metodik tavsiyadan koʻrinadiki, buyuk ajdodlarimiz haqidagi hikoayalarni oʻqish jarayonida ularning obrazini oʻquvchi koʻz oldida shakllantirish muhim hisoblanadi. Xususan, Oybekning “Alisherning yoshligi” hikoyasi allomaning yoshlikdan mehribon va ilmga chanqoq boʻlganligi xususida maʼlumot beradi. Mazkur hikoyani oʻqish darsini quyidagich tashkil qilish mumkin:

Darsning texnologik xaritasi

Mavzu: Alishening yoshligi. (Oybek)

Mavzuga doir tayanch tushunchalar: Alisher, kiyik, ermak, ov qilmoq, merganlik, maktab.

Soatlar soni: 1 soat.


Mavzuning qisqacha taʼrifi: Alishening togʻasi ermak boʻlsin deb, kiyik keltirib beradi. Bolalar kiyikka qiziqib qoladilar. Bolalardan biri uning goʻshti shirin boʻlsa kerak, deb, katta boʻlsa ovchi boʻlishini aytadi. Alisher ov qilmoq, merganlik ermak narsalig-u turmushning koʻp sirlarini maktab oʻrgatishini aytadi.

Oʻquv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:

Metod: Suhbat, muammoli izlanish, munozara, didaktik oʻyin, ifodali oʻqish, tushuntirish, test.

Shaki: jamoa, guruh bilan ishlash.

¹⁵ Qosimova K., Matchonov S., Gʻulomova X. va b. Ona tili oʻqitish metodikasi.- Toshkent: "Nosir" nashriyoti, 2009, 115-bet.



Jihoz : Alisher Navoiyning yoshligi haqidagi surat, plakatlar.

Nazorat: O‘quvchilaning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: O‘quvchilar reytingi dars oxirida e’lon qilinadi.

Darsning maqsad va vazifalari

Maqsadlar:

Ta’limiy: Ifodali o‘qish ko‘nikmasini rivojlantirish, tarixiy shaxslar hayoti, Alisher Navoiyning yoshligi haqidagi ma’lumotlar bilan tanishtirish.

Tarbiyaviy: Tabiatga, hayvonot olamiga mehr uyg‘otish, uni asrab-avaylashga o‘rgatish.

Rivojlantiruvchi: O‘quvchilaning to‘g‘ri, ifodali o‘qish malakalarini rivojlantirish. Vatanimizda yashab o‘tgan allomalar hayotiga oid ma’lumotlarni o‘rgatish orqali Vatanga, maktabga va bilim egallashga muhabbat tuyg‘ularini rivojlantirish.

Kutilayotgan natija

Dars yakunida o‘quvchilar matnni to‘g‘ri va ifodali o‘qish malakasiga ega bo‘ladilar. Ulug‘ bobomiz Alisher Navoiy va uning yoshligi haqidagi matnda berilgan ma’lumotlarni o‘zlashtiradilar.

Dars jarayoni va texnologiyasi			
Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
1-bosqich Tashkiliy qism	O‘quvchilar davomati aniqlanadi. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi.	Suhbat	2 daqiqa
2-bosqich (Refleksiya) ehtiyajlarni aniqlash	Dars davomida rioya qilish lozim bo‘lgan qoidalar belgilanadi. Dars shiori ishlab chiqiladi.	Munozara	2 daqiqa
3-bosqich Darsning	1. O‘tgan dars haqidagi bilimlarini tekshirish.	Savol-javob	6 daqiqa




borishi.	2. O'quvchilar javobi umumlashtirilib, buyuk shoining yoshligi haqida qisqacha so'zlab beriladi. O'zbek yozuvchisi Oybek haqida ma'limot beriladi.	suhbat	6 daqiqa
	3. O'qituvchi matnni ifodali qilib o'qib beradi. Mazmimini tushuntiradi.	ifodali o'qish	5 daqiqa
	4. Lug'at ishi. Qiyin so'zlarga izoh beriladi.	muammoli izlanish	2 daqiqa
	5. O'quvchilar matnni rollarga bo'lib o'qiydilar (muallif, 2 ta bola).	didaktik o'yin	6 daqiqa
	6. Matnda qatnashgan so'zlar asosida "Zanjir" didaktik o'yini o'tkaziladi.	didaktik	5 daqiqa
	7. Topishmoq topish mashqi o'tkaziladi.	o'yin	3 daqiqa

Darsning borishi.

1. O'tgan darsni so'rab baholash.
 - Alisher Navoiy haqida nimalami bilib oldingiz. Kitobdan o'qib bering.
 - Alisher Navoiyni nima uchun "So'z mulkining sultoni" deyishar ekan?
 - Alisher Navoiyning hikmatli so'zlaridan ayting.
2. O'quvchilar javobi umumlashtirilib, buyuk shoirning yoshligi haqida qisqacha so'zlab beriladi:
 - Alisher Navoiy yoshligida juda zukko, bilimdon bola bo'lgan. Juda ko'plab kitoblarni o'qigan. 9 yoshligidayoq o'qigan kitoblarini yod olgan.

O'zbek yozuvchisi Oybek Alisher Navoiy haqida ko'plab kitoblar yozgan. Biz bugun yozuvchining "Alishening yoshligi" deb atalgan hikoyasi bilan tanishamiz.
3. O'qituvchi matnni ifodali qilib o'qib beradi. O'quvchilarga matndan maktab haqidagi gapni topib o'qishni topshiradi. O'quvchilar matnni topib o'qiydilar.
4. Lug'at ishi o'tkaziladi:



Suluv - go‘zal, chiroyli

Lazzatli - mazali, shirin

Merganlik - nishonga aniq tekkiza olish

5. O‘quvchilar matnni rollarga bo‘lib o‘qiydilar (muallif, 2 ta bola).

Matn navbatma-navbat bir necha o‘quvchilarga o‘qitiladi. Matnda qatnashgan so‘zlar asosida “Zanjir” o‘yini o‘tkaziladi.

k				A					r			t				m					b
---	--	--	--	---	--	--	--	--	---	--	--	---	--	--	--	---	--	--	--	--	---

Qo‘yilgan so‘zlar: katta, Alisher. Rost, tog‘am, maktab. Shu tar zda o‘yinni davom ettirish mumkin. Bu o‘yin yangi mavzuni mustahkamlashga yordam beradi.

7. “Kim ko‘p biladi” didaktik o‘yini asosida topishmoq toppish musobaqasi o‘tkaziladi.

6. Yangi mavzuni mustahkamlash uchun quyidagi testlardan foydalanish mumkin.

6. Alisherga nima uchun kiyik keltirib berishdi?

A) Ermak bo‘lsin uchun.

B) Go‘shiti uchun.

2. Nuqtalar o‘rgina mos so‘zni qo‘ying.

Eng zo‘r zaruriyat.

A) Merganlik, botirlik.

B) Maktab.


3. Alishening do‘sti kim bo‘lishni orzu qildi?

A) Mergan.

B) Shoir.

O‘qituvchi darslikdagi savollar asosida suhbat o‘tkazib darsni xulosalaydi. O‘quvchilar reytingini e‘lon qiladi va darsni yakunlaydi.


Bo‘limda Alisher Navoiy haqida “Non isi” rivoyat ham o‘rganiladi. Rivoyat xalq og‘zaki ijodi namunasi bo‘lib, unda buyuk tarixiy shaxslar haqida xalq orasida yurgan fikrlar o‘z aksini topadi. “Non isi” rivoyatida A.Navoiyning ulkan aql va zehn sohibi bo‘lganligi tasvirlanadi. Xususan, u Husayn Boyqaroning topshirig‘ini



o‘z aqli va zakovati bilan topadi va olqishga sazovor bo‘ladi. Mazkur rivoyat o‘qish darsi quyidagicha tashkil qilinadi:

Darsning texnologik xaritasi


Mavzu: Non isi. (Rivoyat)
Mavzuga doir tayanch tushunchalar: Husayn Boyqaro, eng xushbo‘y narsa, vazirlar, Alisher Navoiy, non, non isi, saroy. Soatlar soni: 1soat.
Mavzuning qisqacha ta’rifi: Husayn Boyqaro saroydagilarga eng xushbo‘y narsani keltirishni buyuribdi. Ular keltirgan narsalar Sultonga yoqmabdi. Oxiri ular Alisher Navoiyga murojaat qilishibdi. Alisher Navoiy bir savat non bilan saroyga yetib boribdi. Husayn xursand bo‘libdi, chunki uning ko‘ngli yangi yopilgan non isini istayotgan edi.
O‘quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:
Metod: Suhbat, ifodali o‘qish, test, tushuntirish, munozara. Shakl: Jamoa, guruh bilan ishlash. Jihoz: Turli xildagi nonlar rasmi, A. Navoiy surati. Nazorat: O‘quvchilarning darsda faolligini kuzatib, hisobga olib boriladi. Baholash: O‘quvchilarning reytingi dars oxirida e‘lon qilinadi.
Darsning maqsad va vazifalari
Ta’limiy: Ravon va qiroat bilan o‘qish ko‘nikmasini rivojlantirish, buyuk ajdodlarimiz hayotiga doir ma’lumotlar bilan tanishish, nonning aziz ne‘mat ekanligini tushuntirish. Tarbiyaviy: Tabiat va uning ne‘matlarini asrab-avaylashga o‘rgatish. Rivojlantiruvchi: O‘quvchilarning to‘g‘ri, ifodali o‘qish malakalarini rivojlantirish. Vatanimizda yashab o‘tgan allomlar hayotiga doir ma’lumotlarni o‘rgatish orqali Vatanga va uning tarixiga qiziqish hissini tarbiyalash.
Kutilayotgan natija
Dars yakunida o‘quvchilar matnni to‘g‘ri va ifodali o‘qish malakasiga ega bo‘ladilar. Ulug‘ bobomiz Alisher Navoiy hayoti haqidagi va uning do‘sti Husayn



Boyqaro haqidagi yangi ma'lumotlarni o'zlashtiradilar.

Dars jarayoni va texnologiyasi

Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
1- bosqich Tashkiliy qism	O'quvchilar davomati aniqlanadi. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi.	Suhbat	2 daqiqa
2-bosqich (Refleksiya) ehtiyoblarni aniqlash	Dars davomida rioya qilish lozim bo'lgan qoidalar belgilanadi, dars shiori ishlab chiqiladi.	Munozara	2 daqiqa
3-bosqich Darsning borishi	1. Alisherning yoshligi haqidagi matnni hikoya qildirish.	Savol-javob Suhbat	6 daqiqa
	2. Savol- javob asosida o'tgan dars haqidagi bilimlarni tekshirish.	Ifodali o'qish	5 daqiqa
	3. Matnni o'qishga tayyorgarlik.	Ifodali o'qish	2 daqiqa
	4. O'quvchi matnni o'qib beradi va hikoya qiladi.		5 daqiqa
	5. Lug'at ishi. Qiyin so'zlarga izoh beriladi.	Didaktik O'yin	6 daqiqa
	6. Matnni o'quvchilarga o'qitish.		2 daqiqa
	7. Maqolni o'qitish va mazmuni ustida ishlash.		5 daqiqa
4- bosqich Mustahkamlash	1. Mavzuni mustahkamlashda testlardan foydalanish.	Test	3 daqiqa
	2. Darslikdagi savollardan foydalanib dars umumlashtiriladi	Suhbat	4 daqiqa
5-bosqich	O'quvchilarning darsda ishtiroki		2 daqiqa



Baholash, darsni yakunlash.	hisobga olinib, reytingi e'lon qilinadi.		
6- bosqich	Uyga matnni o'qib, o'rganib kelish topshirig'i beriladi.	Tushuntirish	1 daqiqa

Darsning borishi:

1. Alisherning yoshligi haqidagi matnni hikoya qildirish.
2. O'qituvchi o'quvchilarga o'tgan mavzu yuzasidan savollar beradi.
 - Alisherning do'sti katta bo'lganda kim bo'lmoqchi edi?
 - Alisher do'stiga qanday maslahat berdi?
 - Siz nima deysiz? Kimning gapi to'g'ri?
3. O'tigan mavzu xulosalanadi.
4. Matnni o'qishga tayyorgarlik.

Nonning qanday turlarini bilasiz? (Obi non, patir, shirmoy non, jizzali non...)


Nonning hidi qanaqa bo'ladi?

5. O'qituvchi matnni o'qib beradi va hikoya qiladi.
6. Lug'at ishi.

Husayn Boyqaro – A. Navoiyning bolalikdan birga o'sgan do'sti. Keyinchalik u shoh bo'lganda A. Navoiy unga vazirlik qilgan.
Xushbo'y – yoqimli hid.

7. Matnni o'quvchilarga o'qitish. Matn 5 qismga bo'lib, 5 nafar o'quvchiga o'qitiladi. Mazmunini so'zlash aytiladi.
8. Yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida savol-javob o'tkaziladi.
 - 1) Husayn Boyqaro nima keltirishni buyurdi?
 - 2) Unga nima keltirishdi?
 - 3) Vazirlar kimga murojaat qilishdi?
 - 4) A. Navoiy saroyga nima keltirdi?

9. O'qituvchi bolalar bilan nima uchun nonning hidi eng xushbo'y bo'lishi haqida suhbat uyushtiradi. U nonning juda ko'p insonlar mehnati hosilasi



ekanligini, bug‘doyning ekilishidan boshlanadigan dehqon mehnati haqida bug‘doyni un qilish va undan non tayyorlashgacha bo‘lgan mashaqqatli mehnat haqida so‘zlab beradi.

10. Testlar:

Eng xushbo‘y va aziz ne‘mat nima?

- A. Qalampirmunchoq
- B. Non

11. O‘quvchilarga non haqidagi she‘r, ashula va maqollar aytiriladi. (Nonni qilmagin uvol, nonning uvog‘i ham non)

12. O‘quvchilar baholanadi. Faol ishtirok etganlar rag‘batlantiriladi.


13. Uyga vazifa: Matnni o‘qib, qayta hikoya qilishni o‘rganib kelish.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, 1- sinf «O‘qish kitobi» darsligidagi buyuk ajdodlarimiz haqidagi rivoyat va hikoyalarni o‘qish jarayonida o‘quvchilar ularning mard, to‘g‘riso‘z, mehnatsevar, kamtar va mehribon va bilimga chanqoq inson bo‘lganliklari haqida tasavvur hosil qiladilar; ulardan o‘rnak olishga intiladilar⁵. Bularning hammasi bola shaxsining shakllanishiga yordam beradi.

Bu asarlarni o‘qish bolalarning aqliy jihatdan o‘sishiga ham katta yordam beradi. O‘qilgan matn ustida muhokama yuritish, matndagi asosiy masalalarni ajratish, syujetning rivojlanishini kuzatish, unda ishtirok etuvchi shaxslarning xulq-atvorini izohlash, asar tilini tahlil qilish o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini taraqqiy ettiradi; taqqoslash, umumlashtirish qobiliyatlarini o‘stiradi. Shuningdek, mazkur hikoyalarni o‘qish darslarida o‘quvchilarning so‘z boyligi oshib va lug‘ati faollashib boradi.

2.3. Bo‘lim materiallarini o‘rganishda ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish.

Ta‘lim davlat siyosatining ustuvor sohasiga aylangach, boshlang‘ich ta‘lim rivojiga alohida e‘tibor qaratildi. Davlat ta‘lim standartlari va uzviylashtirilgan o‘quv dasturlari ishlab chiqildi. Darsliklarning yangi avlodini yaratishda samarali ishlar amalga oshirilmoqda.



Mamlakatimiz kelajagi bugun maktablarda ta'lim-tarbiya olayotga farzandlarimizga, ularning har tomonlama yetuk va barkamol insonlar bo'lib yetishishlariga bog'liq. Bu mas'uliyatli vazifani bajarish hozirgi zamon o'qituvchisi, ayniqsa, boshlang'ich sinflarda ta'lim beruvchilardan o'z kasbiy mahoratlarini doimiy tarzda oshirib borishlari, ilg'or pedagogik texnologiyalarning izchil metodlari mohiyatini to'liq anglashlari va uni o'z darslarida mohirona foydalanishlarini taqozo etadi. Bugun ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. O'quvchilarning fikr doirasi, ongi, dunyoqarashlarini o'stirish, ularni mustaqil fikrlaydigan, erkin ishtirokchiga aylantirish nihoyatda muhimdir. O'qituvchi darsda boshqaruvchi, o'quvchilar esa ishtirokchiga aylanmog'i lozim. Ana shu vazifani uddalashga innovatsiya faoliyat ustunligi ko'p qirrali samara keltiradi. Boshlang'ich sinflarda ko'proq bolalarning yoshini, bilim saviyasini hisobga olish lozimligini unutmaslik kerak. Ularga oddiy, oson va vaqt kam sarflanadigan o'yin mashqlaridan foydalanib, darslar o'tish yaxshi samara beradi. Ko'proq atrof-muhit bilan bog'lab o'tilgan mashg'ulotlar bolalar ongini, dunyoqarashini, erkin fikrlash, bayon etish qobiliyatlarini, mustaqil ishlash ko'nikmasini rivojlantiradi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash metodikasini yaxshi egallashlari va o'z faoliyatida ulardan unumli foydalanish yo'llarini bilishlari zarur. Ayniqsa, darslarda multimediali ilovalardan foydalanish muhimdir. Multimediali ilova yangi o'quv ma'lumotlarni namoyish etish, ko'rgazmali vositalarga animatsiya beruvchi, mavzuni audiovizual (ko'rish va eshitish) to'ldiruvchi, egallangan bilim va ko'nikmalarni tekshirib ko'rishga imkon beruvchi materiallardan iborat.

O'qish darslarini multimedia asosida loyihalash quyidagicha amalga oshiriladi:

- Dars jarayonini to'liq qamrab oluvchi multimedia dars ishlanmalari.
- Dars jarayonida qisman foydalanishga mo'ljallangan multimedia dars ishlanmalari.



- O'quvchilarning darsdan tashqari vaqtlarda multimediyadagi qo'shimcha ma'lumotlar, video, audiolavhalar, foydali ma'lumotlar bilan tanishuvini tashkil qiluvchi mustaqil ta'lim faoliyati.


Dars jarayonida qisman foydalanishga mo'ljallangan multimedia dars ishlanmalari orqali o'qituvchi tushuntiradi, o'quvchi kuzatadi, bilimlarni an'anaviy idrok etadi, tajribalar o'tkazadi, o'quv ma'lumotini har bir o'quvchi tomonidan o'zlashtirilishini nazorat qiladi. Test topshiriqlari tez va qulay shaklda o'tkaziladi. Dars uchun tarqatma materiallar tayyor holda foydalaniladi. Jadvallar turli pedagogik texnologiya metodlaridan foydalanish imkonini beradi. O'quvchilar egallagan bilimlar tekshiriladi, mustahkamlanadi, umumlashtiriladi.

Ishlab chiqilgan darslikni multimediali ilovasi boshlang'ich sinf o'quvchisiga quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- Fanga qiziqish uyg'otadi, bilimi mustahkamlanadi.
- Axborotlarni tezkor olish imkoniyatiga egabo'ladi.
- Mavzuni tez tushunib oladi va yaxshi o'zlashtiradi va h.k.

1-sinfda "Biz- buyuklar avlodi" bo'limi materiallarini o'rganishda turli innovatsion texnologiyalardan hamda multimediyali ilovalardan foydalanish dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Hozirgi davrda o'qituvchilar tomonidan keng qo'llanilayotgan interfaol metodlar borki, ular mavzuni o'zlashtirishga yordam beradi. Ilmiy-metodik adabiyotlarda "interfaol" atamasi inglizcha "interact"-o'zaro ta'sirlashishi (yoki "interaction"-o'zaro ta'sir) so'zidan olingan bo'lib, biror faoliyat yoki ma'lumot o'zaro muomalada, o'zaro bahs-munozara, debat usulida, fikrlashni asnosida, hamjihatlik bilan hal qilish ma'nosini bildiradi, deb izohlanadi. Chunki hozirgi zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni yetkazib berish, o'quvchilarda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarini hosil qilish, shuningdek, ular faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda



ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi. Binobarin, boshlang'ich ta'lim amaliyotida interfaol metodlarning «Aqliy hujum», «Klaster», «6x6», «Kichik guruhlarda ishlash», «Qadamba-qadam», «Venn diagrammasi» kabi ko'rinishlaridan keng foydalanilmoqda. Shuningdek, o'qish darslarining andozasiz noan'anaviy ko'rinishlari ham ta'lim jarayonida qo'llanilmoqda.

Quyida biz buyuk ajdodlarimiz haqidagi materiallarni o'qish darslarida qo'llaniladigan interfaol metodlarga qisqacha to'xtalmoqchimiz.

Klaster (tutam, bog'lam) -axborot xaritasini tuzish yo'li, barcha tuzilmaning mohiyatini markazlashtirish va aniqlash uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida g'oyalarni yig'ish. Bu metod bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayonida mavzu bo'yicha yangi o'zaro bog'lanishli tasavvurlarni erkin va ochiq jalb qilishga yordam beradi. O'quvchilar avvalo Klasterni tuzish qoidasi bilan tanishadilar.

Doska yoki katta qog'oz varag'ining o'rtasiga asosiy so'z yoki 1-2 so'zdan iborat bo'lgan mavzu nomi yoziladi. Birikma bo'yicha asosiy so'z bilan uning yonida mavzu bilan bog'liq so'z va takliflar kichik doirachalar «yo'ldoshlar» yozib qo'shiladi. Ularni «asosiy» so'z bilan chiziqchalar yordamida birlashtiriladi. Bu «yo'ldoshlarda» «kichik yo'ldoshlar» bo'lishi mumkin. Yozuv ajratilgan vaqt davomida yoki g'oyalar tugaguncha davom etishi mumkin. O'quvchilar muhokama uchun klasterlar bilan almashishlari mumkin. Bunda o'quvchilarga quyidagi tavsiyalar beriladi:

1. Aqlingizga nima kelsa, barchasini yozing. G'oyalar sifatini muhokama qilmang faqat ularni yozing.
2. Xatni to'xtatadigan imlo xatolariga va boshqa omillarga e'tibor bermang.
3. Ajratilgan vaqt tugaguncha yozishni to'xtatmang. Agarda aqlingizda g'oyalar kelishi birdan to'xtasa, u holda qachonki yangi g'oyalar kelmaguncha qog'ozga rasm chizib turing.

1-sinfda A.Navoiy, Bobur haqidagi asarlarni o'qish darslarida o'quvchilarga klasterni tuzdirish mumkin.



“Shoir va shoh” ilmiy-ommabop maqolasi o‘qilgach, Bobur haqida klaster tuzadilar.

Mavzu o‘rganishda **Venn** diagrammasi va **Blits** texnologiyasidan foydalanish mumkin.

Venn diagrammasida shoir va shohning o‘ziga xos xususiyatlarini va o‘xshash xususiyatlarini yozadilar: Shoir she‘r yozadi. Shoh vatanni qo‘riqlaydi. Xalqini dushmanlardan himoya qiladi. Davlatni boshqaradi. Ularning o‘xshash tamonlari: Ular do‘stlikni qadrlaydi. Yurt tinchini, obodligini o‘ylaydi. Bunda Bobur va Amir Temur xususiyatlari qiyoslanishi mumkin.

Yuqoridagi interfaol metodlarni 1-sinfda “Ona sabog‘i” mavzusini o‘rganish darsida qo‘llashning dars ishlanmasini keltiramiz:

Mavzu. Ona sabog‘i

Darsning maqsadi:

- 1.O‘quvchilarga tabiat hodisalari haqida elementar ma’lumot berish.
- 2.To‘g‘ri, tez, ongli, ifodali o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish va takomillashtirish.
- 3.O‘quvchilarda ilm olishga qiziqish uyg‘otish.
- 4.Lug‘atini boyitish, bog‘lanishli nutqini o‘stirish. Badiiy asar matnini qayta hikoyalashga o‘rgatish.

Dars turi. Yangi bilim beruvchi dars.


Dars metodi. Izohli o‘qish, Aqliy hujum, klaster usuli, blits metodi.

Dars jihozi. Bobur Mirzo portreti, g‘azal va ruboyilardan namunalar, rasmlar.

Darsning borishi:

1. O‘tilgan mavzu yuzasidan o‘quvchilar bilimini aniqlash va mustahkamlash.

- Bobur haqida nimalarni bilasiz?



O'quvchilar javobi tarmoqlash usulida doskaga yozib boriladi. o'zlashtirishi bo'sh o'quvchilardan so'rashda qo'l keladi. Ular doskadagi kalit so'zlar asosida mavzuni gapirib beradilar.

So'ng ular orasidagi bog'lanishlar aniqlanadi.

-Boburning shoir va shohligida qilgan ishlaridan nimalarni bilasiz?

Shoir	Shoh
G'azal	bog'
Ruboiy	saroylar
Boburnoma	binolar

-Bobur shoir, Bobur shoh. Siz qaysi Boburni yaxshi ko'rdingiz?

O'quvchilarning bahs-munozaraga kirishlari uchun qo'shimcha savllar berib boriladi:

-Nega shoir sifatida yaxshi ko'ryapsiz?

-Qaysi ruboiysini yod ayta olasiz?

-Nega shoh Boburni yaxshi ko'rdingiz?

-"Shoir va shoh" matnini qayta hikoyalab bering.

-She'rni ifodali yod aytib bering.

2.Yangi mavzu ustida ishlash.

Doskaga Bobur va onaning birga o'tirgan rasmi ilib qo'yiladi.

Suhbat uchun savollar:

-Rasmda kimlarni ko'ryapsiz?

-Ona va bola nimalar haqida suhbatlashyapti deb o'ylaysiz?

Aqliy hujum. Bugun o'qiydigan hikoyamiz nima haqida deb o'ylaysiz?

-Bobur bilan onasi ilm olish haqida suhbatlashishyapti.

-Onasi Boburga nasihat qilyapti.


-Bobur onasidan otasi haqida so'rayapti.

-Bobur onasiga o'rtoqlari haqida gapirib beryapti.

-Bobur onasiga o'z she'rlaridan aytib beryapti.

-Onasi Boburga ertaklar aytib beryapti.

-Onasi Boburni o'qishga o'rgatayapti.



-Bobur onasidan o‘zi bilmaganlarini so‘rab olyapti.

O‘qituvchi:- Asar nima uchun “ona sabog‘i” deb nomlangan ? degan savol bilan o‘quvchilarni yana izlanishga undaydi.

3.Asar bilan tanishtirish. O‘qituvchi:

-Javoblaringizni qay darajada haqiqatga yaqinligini bilib olishingiz uchun asarni diqqat bilan eshiting.

4.O‘quvchilarning asarni bir eshitishda qay darajada idrok eta olganliklarini aniqlash maqsadida dastlabki suhbat o‘tkaziladi:

-Bobur va onasi nima haqida suhbatlashdilar?

-Bobur onasidan nimalarni bilib oldi.

5.Asarni qismlarga ajratish.

O‘qituvchi:

-Men asarni qayta o‘qiyman. Siz shu asarni mazmuniga nechta rasm chizish mumkinligini aniqlab aytasiz. (O‘quvchilar 2 ta rasm chizish mumkinligini aytadilar.)

-Birinchi rasm mazmunini so‘zlab bering.

-Demak. Asarni birinchi qismi qayerdan qayergacha bo‘lar ekan?

-Ikkinchi rasm mazmunini so‘zlab bering.

-Demak, ikkinchi qism qayerdan qayergacha davom etar ekan?

Shu asosda asar qismlarga ajratiladi.


6.Asar qismlarga ajratib o‘qitish. Bunda o‘quvchilarga quyidagi topshiriq beriladi:

-Ma’nosi tushunarsiz so‘zlarni va sizga kuchli ta’sir qilgan iboralarni aniqlab boring.

1-qismda: damlar, ko‘zgudek tiniq, musaffo, mitti,dillashadilar, ko‘kka, uyum-uyum paxtani eslatuvchi;

2-qismda: xazrat onajon, jajji bulutlarni qo‘l bilan ushlab bo‘ladimi, bolajonim, momiq, suv zarralari.

O‘qituvchilar aytgan so‘z va iboralar doskaga yozib boriladi va ma’nosi ustida ishlanadi.



7. Tanlab o'qish.

1) Ona bilan Boburning suhbatini berilgan o'rinni topib o'qing va hikoya qilib bering.

2) Tabiat tasvirlangan o'rinni topib o'qing. Yozuvchi tabiat tasvirida qo'llagan so'zlarni topib ayting.

3) Bobur Mirzoning va onasiga bergan savolini topib o'qing.

4) Onasi bergan javobni topib o'qing va so'zlab bering.

8. Topshiriq asosida o'qitish. 1-qismini o'qing va unga sarlavha toping. (Yoz kunlari. Ziyrak Bobur)

2-qismini o'qing va unga sarlavha toping.

9. Ro'llarga bo'lib o'qitish.

10. To'liq qayta hikoya qilish.

11. Uyga vazifa berish. Matnni o'qing va unga mos rasmlar chizib keling. To'liq qayta hikoyalashga tayyorlanib keling.

12. Darsda o'rganilganlarni umumlashtirish va yakunlash. Bunda blits usulidan foydalanish.

Savol-topshiriqlar:

1. Shoh va shoir kimligini toping.

2. "Shu bulutlarni qo'l bilan ushlab bo'ladimi" gapini qaysi qahramon aytgan?


3. "Momiq emasmi, qo'l bilan tutib bo'lsa. Ular suvzarralari-ku..." gapini kim aytgan?

4. "Yoz oxirlab borayotgan damlar. Osmon ko'zguday tiniq, musaffo". Bu nimaning tasviri?

5. Bobur onasi qaysi so'zlar bilan murojlat qiladi?

6. Bobur va uning onasi haqidagi asar nomini toping.

7. Boburning ismi kim edi?



Blits jadvali

Yakka javob	To'g'ri javob	Xatolar	Javoblar
			Ona sabog'i
			Zahiriddin
			Bobur
			Hazrat onajon
			Tabiat tasviri
			Boburning onasi

O'quvchilarni rag'batlantirish.

1-sinfda o'zbek xalqining qomusiy olimlaridan bo'lmish Abu Ali ibn Sino haqida ham ma'lumot beriladi. O'quvchilarga bu allomaning ilm-fan, ayniqsa, tibbiyot sohasida erishgan yutuqlari haqida ma'lumot beriladi. O'quvchilar "Abu Ali ibn Sino" ilmiy-ommabop maqoasidan hamda Mirkarim Osimning "Kitobga mehr" hikoyasidan mutafakkir allomaning yoshlkdan kitobga mehr qo'yganligini, ilmga chanqoqlik uni buyuk insonga aylantirganini bilib oladilar. Mazkur hikoyani o'qishda turli videolavhalardan, didaktik o'yinlardan foydalanish yaxshi natija beradi.


Mavzu: Kitobga mehr. *Mirkarim Osim.*

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: O'quvchilarni matn mazmuni bilan tanishtirish, ularda to'g'ri va ifodali o'qish malakalarini shakllantirish.

Tarbiyaviy: Kitobni qadrlashga, uni sevib o'qishga o'rgatish, kitobga bo'lgan qiziqishlarini oshirish.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarda matnni qayta hikoyalash, savollarga to'liq javob berish, topishmoqlar javobini topish malakalarini rivojlantirish.



Dars turi: Yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi.

Dars metodlari: Suhbat, tushuntirish, “Ortiqchasini top”, “Sonlar tilsimi” mashqi.

Dars jihozi: Darslik, videolavha.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism.

O‘quvchilarning darsga hozirligini tekshirish.

II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni takrorlash.

Uyga berilgan vazifa “Abu Ali ibn Sino” matni o‘quvchilarga o‘qitiladi.

Videoilova. “To ‘g ‘risini top ” mashqi.

Matn yuzasidan savollar beriladi, o‘quvchilar ularga javob beradilar.

- Kim dunyoga mashhur hakim va olim bo‘lgan? (Alisher Navoiy, Ibn Sino)
- Ibn Sinoning asli ismi nima bo‘lgan? (Husayn, Muhammad)
- Bobomiz o‘z kitoblari bilan qanday ilmga asos solgan? (tarbiya, tibbiyot)
- So‘zni top: “Biz uch tarafmiz - men, sen va ...” (shifokor, kasallik)
- Agar bemor tabib tomoniga o‘tib olsa, kasallik ... (yengiladi, g‘olib bo‘ladi)

Videoilova. “Sonlar tilsimi” mashqi.

O‘quvchilarga o‘n ichida qo‘shish va ayirishga doir misollarni yechish topshirig‘i beriladi. Misollarning javoblari yozilgan sonlar yonida bittadan harf yozilgan bo‘ladi. O‘quvchilar misollarni yechib bo‘lsalar, yangi mavzu nomi kelib chiqadi.

$2 + 3 = 5$	“K”	$10 - 6 = 4$	“M”
$7 - 6 = 1$	“I”?	$4 + 2 = 6$	“E”
$6 + 2 = 8$	“T”	$5 + 3 = 8$	“H”
$3 + 4 = 7$	“O”	$9 - 2 = 7$	“R”
$8 - 6 = 2$	“B”		
$5 + 4 = 9$	“G”		
$10 - 7 = 3$	“A”		



“Kitobga mehr” soʻz birikmasi yangi mavzuning sarlavhasi ekanligi aytiladi.

Yangi mavzu doskaga yoziladi.

III. Yangi mavzuni tushuntirish.

Yozuvchi haqida qisqacha maʼlumot beriladi.

Oʻqituvchi matnni ifodali oʻqib beradi. Oʻquvchilar tinglaydilar. Matnda uchragan notanish soʻzlar yuzasidan lugʻat ishi oʻtkaziladi.

Videolavha. Lugʻat ishi:

soturmisiz - sotasizmi

varaqlay boshladi - varaqlami birma-bir ocha boshladi

Oʻqituvchi koʻrgazma asosida matn mazmunini qayta hikoya qilib, tushuntirib beradi.

Savollarga javob beradilar.

- Husaynning kitobni yaxshi koʻrishini nimadan bilib oldingiz?
- Siz qanday kitoblarni oʻqishga qiziqasiz?

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

Oʻquvchilar matnni navbat bilan oʻqiydilar. Soʻng rollarga boʻlinib, matn mazmunini sahna koʻrinishi sifatida koʻrsatib beradilar.

Videolavha. “Kim topagʻon?” oʻyini.

Oʻquvchilar topishmoqlami oʻqiydilar va javoblarini topadilar.

- Qat-qat qatlama,

Aqling boʻlsa, tashlama. (kitob)

- Sandiq toʻla pista-bodom,

Ochib koʻr, boʻlsang odam.

Xosiyati koʻp, olam-olam,

Terib ol uni har dam. (kitob)


- Tili poʻlat shovvoz,

Soʻzlay olmas beqogʻoz. (ruchka)

Kitoblarning qanday nashr qilinishi haqida videolavha koʻrsatiladi.

V. Darsga yakun yasash va baholash.

- “Kitob bilim bulogʻi,



O'quvchining o'rtog'i" maqolini qanday tushunasiz?

O'quvchilar fikrlari tinglanib, darsga yakun yasaladi.

O'quvchilar darsga ishtiroki va faolligiga ko'ra baholanadi.

VI. Uyga vazifa berish.

"Kitobga mehr" matnini ifodali o'qib, so'zlab kelish.

1-sinfda o'qishdan o'tkaziladigan takrorlash darslari o'quvchilar bilimini bir tizimga solish, o'rganilganlarni takrorlab umumlashtirish maqsadiga xizmat qiladi. Takrorlash darsi darslikning butun bir bo'limini yakunlashga xizmat qilishi ham mumkin.

1- sinfda o'tkaziladigan takrorlash darsi bolalar tasavvuri va tushunchalarni kengaytirishga yordam beradi; bunday darslarda o'quvchilar egallagan bilimlarning sinf va maktab jamoasi hayotida, har bir o'quvchi hayotida qanday ahamiyatga ega ekanini tushunadilar. Bu darsda o'qituvchi bolalar bilimini boyitadigan shu mavzu oid qo'shimcha materiallar ham berishi mumkin.

1-sinfda takrorlashtiruvchi darsda takrorlash ilgari o'qilganlar mazmunini o'quvchilar yodida qayta tiklash emas, balki umumlashtiruvchi xarakterda bo'lishi, bolalar bilimini sistemalashtirishga, ayrim tasavvur va tushunchalarni tartibga solishga yordam berish lozim. Shunday ekan, bunday darslar uchun kitobdan o'qiganlargina emas, balki bolalarning kuzatishlari natijasida bevosita idroklangan tabiatdagi predmetlar va hodisalar, ijtimoiy hayot voqealari, shaxsiy tajribalari ham material bo'ladi.

1-sinfda "Biz-buyuklar avlodi" bo'limi o'rganilgach mazkur bo'lim yuzasidan takrorlash darsi o'tkaziladi. Bu darsni turli interfaol metodlar va multimediyali ilovalar bilan tashkil qilish samaradorligi bilan ajralib turadi.

Mavzu: "Biz - buyuklar avlodi" bo'limi yuzasidan takrorlash.

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: "Biz - buyuklar avlodi" bo'limi yuzasidan o'quvchilar egallagan bilimlarni mustahkamlash.



Tarbiyaviy: O'quvchilarda buyuk ajdodlarimizdan o'rnak olish, ularning o'g'itlarini qadrlash, xulosalar chiqarish hissini tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilaning mustaqil va mantiqiy fikrlash, ijodkorlik qobiliyatini o'stirish.

Dars turi: O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantiruvchi.

Dars metodlari: Suhbat, "Kim birinchi" o'yin texnologiyasi, "Klaster" metodi, guruhlar bilan ishlash.

Dars jihozi: Darslik, videolavha, ko'rgazmalar va tarqatma material.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism.

O'quvchilarni darsga hozirlash.

O'quvchilarga darsning musobaqa darsi ekanligi va guruhlar bo'yicha ishlash aytiladi. Topshiriqlar "Biz - buyuklar avlodi" bo'limi yuzasidan.

Baholash: har bir guruhga berilgan koinot manzarasiga zarg'aldoq (a'lo), sariq (yaxshi), oq (qoniqlik) rangli rag'bat yulduzchalari yopishtirib, ballarni yig'ib boradilar.

Oltin qoidalar yodga olinadi:

1. Intizomlilik	4. Aniqlik
- 2. Ahillik	5. O'ng qo'l qoidasi
3. Faollik	6. O'zaro hurmat

II. O'tilganlarni mustahkamlash.


O'quvchilar beshta guruhga bo'linadi.

Har bir guruh o'ziga nom va sardor tayinlaydi. Guruhlar o'zlarini tanishtiradilar.

"Topag'on musavvirlar" o'yini. 1-topshiriq.

Har bir guruhga topishmoqlar beriladi. Guruh a'zolari topishmoqning javobini topib, rasmini chizadilar.

1-guruh



Yoz, kuz bo‘yi chirqillab,
Don tashiydi pirillab.

2- *guruh*

Oyna emas, jimirlar,
Tek turolmas, qimirlar.

3- *guruh*

Qat-qat qatlama,
Aqling bo‘lsa, tashlama.

4- *guruh*

Tikuvchiga o‘rtoq o‘zi,
Bittagina jajji ko‘zi.

5- *guruh*

O‘rkach-o‘rkach tuyalar
Bir-biriga suyalar.
Qimir etmas yil, asr,
Bag‘rida xazina, sir.

Faoliyat yakunida topshiriqlaning bajarilishi tekshiriladi va rag‘bat yulduzchalari tarqatiladi.

“U kim?” mashqi. 2-topshiriq.

Har bir guruhga alloma surati beriladi. Ular suratda kirn tasvirlanganini aytadilar va u haqida ma’lumot beradilar. Alloma haqida to‘liq va mazmunli ta’rif bergan guruhlariga rag‘bat yulduzchalari beriladi.

“Tezkor savollar” musobaqasi. 3-topshiriq.

Guruhlarga o‘qituvchi tomonidan bittadan savol beriladi. O‘quvchilar savollarga tezkor javob berishlari kerak.



-Amir Temur bobomizning uzugida qanday so‘zlar yozilgan ekan?

-Alisher Navoiy kim bo‘lgan?

- Ibn Sino yoshligida ko‘proq nimalarga qiziqqan?

- Ulug‘bek bobomiz qayerda rasadxona qurdirgan?

- Bobur Mirzo qayerda tug‘ilgan?





O'quvchilar javoblariga ko'ra rag'bat yulduzchalari bilan taqdirlanadi.

“Boshqotirma”. 4-topshiriq.

Guruh a'zolari “Boshqotirma”ni yechib, “alloma” so'zini hosil qiladilar. Topshiriqning bajarilishi tekshiriladi va rag'bat yulduzchalari tarqatiladi.

Guruhlarning har bir topshiriqlari bo'yicha to'plagan ballari e'lon qilinadi g'olib guruh aniqlanadi.

Agar bo'lim materiallari yuzasidan takrorlash darsidan oldin o'quvchilar bilan tarixiy muzeylarga, tarixiy obidalarga ekskursiyalar uyushtirilsa, darsning samaradorligi yanada ortgan bo'lardi.



Xulosa

Mazkur bitiruv malakaviy ishida berilgan vazifalar o'rganilib, quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Yoshlarni milliy istiqlool ruhida ma'naviyatli, barkamol avlod sifatida tarbiyalab yetishtirish davrimizning dolzarb masalalaridan biridir. Mana shu dolzarb masalani amalga oshirishda 1-sinf "O'qish" kitobi darsligidagi "Biz-buyuklar avlodi" bo'limi materiallarini o'qish darslari ham alohida o'rin tutadi. Bu bo'limdan o'zbek xalqi tarixida, madaniyati va adabiyotida chuqur iz qoldirgan Abu Ali ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, A.Navoiy, Z.M.Bobur haqidagi asarlar o'rin olgan. Nafaqat O'zbekistonda, balki butun jahonda bu buyuk insonlarning nomini bilmaydigan odamning o'zi yo'qlikaning desak, mubolag'a bo'lmaydi.


Boshlang'ich ta'lim 1-sinfidan boshlab buyuk ajdodlarimiz hayoti va faoliyati haqida ma'lumot berish "O'qish kitobi" darsligidagi "Biz-buyuklar ajdodi" bo'limi orqali amalga oshiriladi.

2. Bo'lim materiallarini o'qish darslarini tashkil qilish va o'tkazishda ularning janriy xususiyatlari e'tiborga olinib, rang-barang usullaridan foydalanish ularning samarador bo'lishini ta'minlaydi.


3. 1-sinfda buyuk ajdodlar haqidagi ilmiy-ommabop maqola, hikoyalar va rivoyatni o'qish darslarining samaradorligi ularning pedagogik texnologiyalar asosida loyihalanishiga bog'liq. Buning uchun berilgan diaktik talablar asosida darsning texnologik xaritasi (yoki loyihasi) tayyorlanadi, dars loyihasi tayyor bo'lgach darsning algoritmi ishlab chiqiladi.

Bo'lim materiallarini o'qish darslarining tuzilishi, ta'lim-tarbiyaviy maqsadi, dars tipi va o'rganiladigan materiallarning xususiyatiga ko'ra turli xildir. Ularning bu xususiyatlariga loyihalashda katta e'tibor qaratiladi. .

4. Bo'lim materiallarini takrorlash, umumlashtirish darslarini to'g'ri tashkil qilish uning xususiyatlari bilan bevosita bog'liqdir. 1-sinfda o'qish darslarini ilg'or pedagogik hamda axborot texnologiyalari asosida tashkil qilish




o'quvchilarning ijodiy tafakkurini yanada kengaytiradi. Darsni qiziqarli va jonli qilishni ta'minlaydi. Bunda turli multimedialardan, buyk ajdodlarimiz haqidagi videolavhalardan foydalanish, ko'rgazmali vositalardan unumli foydalanish, tuli didaktik o'yinlarni qo'llash yaxshi natija beradi. Shu bilan birga darslarning samaradorligini ta'minlaydi.




Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.- Toshkent, “Ma'naviyat”, 2008.
2. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. -Toshkent, “O‘zbekiston”, 2010. y.74-75-betlar.
3. O‘zbekiston prezidenti I.A.Karimovning BMT bosh assambleyasining mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag‘ishlangan oily darajadagi yalpi majlisdagi nutqi.- Toshkent. “O‘zbekiston”, 2010. -y. 11-bet.
4. Karimov I.A. . Mamlakatni modernizatsiya qilish yo‘lini izchil davom ettirish – taraqqiyotimizning muhim omilidir.- Toshkent, 2010. 4-b.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni // Barkamol avlod- O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori.- Toshkent: “Sharq” nashriyot- matbaa konsernining Bosh tahririyati, 1998.
6. O‘zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” // Barkamol avlod- O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori.- Toshkent: “Sharq” nashriyot- matbaa konsernining Bosh tahririyati, 1998.
7. Barkamol avlod orzusi (Tuzuvchilar: Qurboniv Sh., Saidov H., Ahliddinov R.)- Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati, 1999.
8. Boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha Yangi tahrirdagi Davlat ta’lim standart i// Boshlang‘ich ta’lim .- Toshkent, 2005.- 5-son, 5,6,8-9-betlar.
9. Boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha Yangi tahrirdagi o‘quv dasturi // Boshlang‘ich ta’lim .- Toshkent, 2005.- 5-son, 21-33-betlar.
10. Boshlang‘ich ta’lim konsepsiyasi// Boshlang‘ich ta’lim, 1998, 6-son.
11. Uzviylashtirilgan Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi.- Toshkent, 2010.
12. Anorboyev A. Badiiy asar- ma'naviy boylik// Boshlang‘ich ta’lim, 2008, 6-son, 18-bet.
13. Avezov S. Milliy istiqlool g‘oyasi mezonlari// Boshlang‘ich ta’lim, 2006, 12-son, 10-bet.



14. Boymurodova G., Sattarova X. Va b. O'qish 1.- Toshkent: "Sharq" nashriyot- matbba aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2015.
15. Matchonov S., G'ulomova X. va boshqalar. Boshlang'ch sinf o'qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish.- Toshkent: , "Yangiyul Poligraph servise", 2008.
16. Nazarova H., Anorboyeva A. O'qish darsi- nafosat olami // Boshlang'ich ta'lim, 2008, 11-son, 5-bet.
17. Qosimova K., Matchonov S. , G'ulomova X., Yo'ldasheva SH., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. -Toshkent, «Nosir», 2009.
18. Safarova R., Musayev U., Musagev P., Yusupova P., Nurjanova R. O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim strategiyasi muammolari va ta'lim mazmunining yangi modellari, ularni tatbiq etish yo'llari. –Toshkent, 2005.
19. Sattarova M., Sharipova R. Mukammallik yo'lida// Boshlang'ich ta'lim, 2008, 3-son, 14-15-betlar.
20. Xo'jayev A. Izohli o'qish metodikasining ba'zi masalalari.- Toshkent: "O'qituvchi", 1968,
21. G'afforova T. , G'ulomova X. O'qish darslari. 1- sinf (o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma)– Toshkent, "Tafakkur" nashriyot- matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2011.
22. G'afforova T. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar.- Toshkent: "Tafakkur", 2011.
23. O'qish kitobi. 1-sinf uchun darslik. – Toshkent, "Sharq" nashriyot-matbba aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2015.
24. Internet ma'lumotlari: www.ziynet.uz



**UrDU Pedagogika fakulteti “Boshlang‘ich ta‘lim va sport tarbiyaviy ish”
ta‘lim yo‘nalishi bitkazuvchisi Matchanova Dilobar Bekpo‘latovnaning “1-
sinf “O‘qish kitobi” darsligidagi “Biz buyuklar avlodi” bo‘limi materiallarini
o‘rganish yo‘llari” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga**

TAQRIZ

O‘zbekiston taraqqiyoti, uning jahon hamjamiyatida mustahkam mavqega ega bo‘lishi iqtisodiyot, fan va texnikaning rivojlanishi milliy ta‘lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishga bog‘liq. Shuning uchun ham “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” xalq ta‘limi oldiga zamonaviy milliy ta‘lim-tarbiya tizimini yaratish uchun zarur bo‘lgan bir qator muhim vazifalarni qo‘ygan. Shulardan biri o‘quvchilarning ma‘naviy kamolotiga katta e‘tibor qaratish, ularda milliy, umuminsoniy qadriyatlarga e‘tiqod, yuksak vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishdir. Bu vazifani ado etishda “1-sinf “O‘qish kitobi” darsligidagi “Biz buyuklar avlodi” bo‘limi materiallarining ham juda katta o‘rni bor. Shu nuqtai nazardan mazkur bitiruv malakaviy ishi dolzarblik kasb etadi.

Ish mantiqiy izchillikda tuzilgan reja asosida yozilgan. U Kirish, II bob, Xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil togan.

Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, ilmiy o‘rganilganlik darajasi, metodologik asosi va muhim manbasi, maqsad va vazifalari, obyekti, predmeti, ilmiy farazi, amaliy ahamiyati, tarkibiy tuzilishi va hajmi o‘z aksini topgan.

Ishning I bobida 1-sinf o‘qish darslarining maqsad va vazifalari, unda o‘quvchilar bilim, ko‘nikma va malakasiga qo‘yilgan DTS talablari, 1-sinf “O‘qish kitobi” darsligi tahlili va undagi “Biz buyuklar avlodi” bo‘limi materiallari mundarijasi o‘z aksini topgan.



II bobda 1-sinfda “O‘qish kitobi” darsligidagi “Biz-buyuklar avlodi” bo‘limi materiallarini: ilmiy-ommabop maqola va hikmatli so‘zlarni, rivoyat va hikoyalarni o‘rganish yo‘llari ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, unda bo‘lim materiallarini o‘rganishda ilg‘or pedagogik va axborot- kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish masalasi ham yoritilgan.

Ish xulosalangan. Tadqiqot natijalaridan boshlang‘ich ta‘lim jarayonida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari metodik tavsiya sifatida foydalanishlari mumkin. Bu narsa ishning qimmatini belgilaydi. Shu nuqtai nazardan mazkur bitiruv-malakaviy ishni Ziyonet Axborot resurs tarmog‘iga joylashtirish uchun tavsiya qilamiz.

Taqrizchi:

f.f.n., dots. A. Atajonova

kat.o‘qit.M. Tilavova



**UrDU Pedagogika fakulteti “Boshlang‘ich ta‘lim va sport tarbiyaviy ish”
ta‘lim yo‘nalishi bitkazuvchisi Matchanova Dilobar Bekpo‘latovnaning “1-
sinf “O‘qish kitobi” darsligidagi “Biz buyuklar avlodi” bo‘limi materiallarini
o‘rganish yo‘llari” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga**

TAQRIZ

O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘grisida” gi Qonuni hamda “Boshlang‘ich ta‘lim konsepsiyasi”da ta‘kidlanganidek, o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatuvchi, ijodiy tafakkurini rivojlantiruvchi usullarni qo‘llab, ularga fan asoslaridan chuqur bilim berish hozirgi zamon boshlang‘ich ta‘limning asosiy vazifalaridan biridir. Shuningdek, o‘quvchilarni boshlang‘ich ta‘lim davridanoq buyuk ajdodlar bilan faxrlanish, ularga munosib voris bo‘lish ruhida tarbiyalash masalasi ham dolzarb masalalardan hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan D.Matchanovaning mazkur bitiruv malakaviy mavzusi ana shu masalaga qaratilganligi bilan dolzarblik kasb etadi.

D.Matchanova mazkur ishida mavzuning dolzarbligi, o‘rganilganlik darajasi, maqsad va vazifalari, obykti, predmeti, metodologik asosi hamda amaliy ahamiyatini ko‘rsatgani holda, 1-sinf “O‘qish kitobi” darsligidagi “Biz buyuklar avlodi” bo‘limi materiallarini o‘rganish yo‘llari tadqiq qiladi.

Ishda 1-sinf o‘qish darslarining maqsad va vazifalari, unda o‘quvchilar bilim, ko‘nikma va malakasiga qo‘yilgan DTS talablari, 1-sinf “O‘qish kitobi” darsligi tahlili va undagi “Biz buyuklar avlodi” bo‘limi materiallari mundarijasini ko‘rsatadi. Shuningdek, darslikdagi “Biz-buyuklar avlodi” bo‘limi materiallarini, ya‘ni ilmiy-ommabop maqola va hikmatli so‘zlar, rivoyat va hikoyalarni o‘rganish yo‘llari o‘rganiladi. Ishda bo‘lim materiallarini o‘rganishda ilg‘or pedagogik va axborot- kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish masalasi alohida to‘xtaladi, dars ishlanmalaridan namunalar keltiradi.

Mazkur bitiruv malakaviy ish boshlang‘ich sinf o‘qutuvchilari uchun dars samaradorligini oshirishda metodik tavsiya bo‘lib xizmat qiladi. Shuni e‘tiborga olgan holda, uni Ziyonet ta‘lim tarmog‘iga joylashtirish uchun tavsiya qilaman.

Taqrizchi:

N.Karimova

**Xiva shahridagi 5-son
umumta‘lim maktabining
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi**